XULOSA. Mazkur tadqiqotda qirralari uzunliklari turlicha bo'lgan chekli va bog'lamli graflarda quvish-qochish o'yini masalasi o'rganildi. Tadqiqot jarayonida graflarda harakatlanuvchi quvuvchi va qochuvchi nuqtalarning strategiyalari tahlil qilinib, ularning maksimal tezliklari teng bo'lgan holatda o'yinning yakuniy natijasiga ta'sir etuvchi omillar aniqlab berildi. Xususan, qirralari uzunliklari teng bo'lgan graflarga nisbatan qirralar uzunliklari turlicha bo'lgan graflarda quvish masalasi ancha murakkablashishi ko'rsatildi.

References:

1. Azamov A. A., Kuchkarov A. Sh., Holboyev A. G. The pursuit-evasion game on the 1-skeleton graph of regular polyhedron. //Automation and Remote Control, 2017.(78) 4.-P. 754-761.
2. Bollodas B., Kun G., Leader I. Cops and robbers in a random graph. Preprint, 2011.-158 p.
3. Bonato A., Nowakowski R. J. The game of cops and robbers on graphs, Student Mathematical Library. // American Mathematical Society, Providence, Vol. 61.RI, 2011. -P. 661-669.
4. Coxeter H. S. M. Introduction to Geometry. New York: John Wiley and Sons, Inc. 1961.- 486 p.
5. Ibragimov G., Holboyev A., Ibaydullaev T., Pansera B. A. Pursuit differential game on the 1-skeleton graph of the icosahedron, Mathematics 2022, 10, 1435. <https://doi.org/10.3390/math10091435>.
6. Azamov A. A., Kuchkarov A. Sh., Holboyev A. G. The pursuit-evasion game on the 1-skeleton graph of regular polyhedron. //Automation and Remote Control, 2019. (80) 1.- P. 164-170.
7. Nowakowski R. J. Unsolved problems in combinatorial games. //Games of no chance. 2019. (5) 1.- P.125-168
8. Азамов А. А., Ибайдуллаев Т. Т. Дифференциальная игра сближения-уклонения с медленными преследователями на графе ребер симплекса. I. //Математическая Теория Игр и её Приложения, 2020. (12) 4.- С. 7-23.
9. Азамов А. А., Кучкаров, А. Ш., Холбоев А. Г. Игра преследования-убегания на реберном остоле правильных многогранников III. //Математическая Теория Игр и её Приложения, 2019. (12) 4. - С. 5-23.
10. Азамов А. А., Кучкаров, А. Ш., Холбоев А. Г. Игра преследования-убегания на реберном остоле правильных многогранников при наличии "медленных", преследователей. //Uzbek mathematical Journal, 2017. 1. - С. 140-145.

Muallif:

Mamatov J.S. – Matematika kafedrası katta o'qituvchisi, e-mail: jurabek25@mail.ru

UDK 519.633.6

MIXED PROBLEM FOR A QUASILINEAR PARTIAL DIFFERENTIAL EQUATION WITH A DELAYED ARGUMENT OF NEUTRAL TYPE.

KECHIKUVCHI ARGUMENTLI NEYTRAL TURDAGI XUSUSIY HOSILALI KVAZICHIZIQLI
TENGLAMA UCHUN ARALASH MASALA

СМЕШАННАЯ ЗАДАЧА ДЛЯ КВАЗИЛИНЕЙНОГО УРАВНЕНИЯ В ЧАСТНЫХ ПРОИЗВОДНЫХ С
ЗАПАЗДЫВАЮЩИМ АРГУМЕНТОМ НЕЙТРАЛЬНОГО ТИПА

Kalandarov Abdukayum, Anorbayev Madamin Mahmud o'g'li, Berdiqulova Vazira Hasan qizi
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: kalandarov.abdukayum@guldu.uz

Annotation. This article is devoted to finding numerical solutions of the mixed problem for a quasilinear partial differential equation with a delayed argument of neutral type at the nodes of a discretized

domain. The existence and uniqueness of the solution to this mixed problem were established by the author in [2], however, obtaining the solution in analytical form is a difficult task. To compute numerical solutions, the domain under consideration was discretized, using the finite difference method, with the application of both explicit and implicit schemes, the solutions were obtained by the differential sweep method.

Keywords: delay (or delayed) argument, neutral type, quasilinear equation, mixed problem, numerical method, finite difference method, explicit and implicit schemes, sweep method (Thomas algorithm).

Annotatsiya. Ushbu maqola kechikuvchi argumentli neytral turdagi xususiy hosilali kvazichiziqli tenglama uchun aralash masalani sonli echimlarini to'rlangan sohani tugunlarida topishga bag'ishlangan. Bu aralash masala yechimlarini mavjudligi va yagonaligi [2] da avtor tomonidan ko'rsatilgan, lekin uni analitik korinishda olish murakkab masala. Sonli echimlarni topish uchun soha to'rlangan va chekli ayirmali metod yordamida oshkor va oshkormas sxemalarni qo'llab, differentsial haydash usulida echimlar olingan.

Kalit so'lar: kecnikuvch argument, neytral tur, kvazichiziqli tenglama, aralash masala, sonli usullar, ayirmali metodlar, oshkor va oshkormas sxemalar, differentsial haydash usuli.

Аннотация. Данная статья посвящена нахождению численных решений смешанной задачи для квазилинейного уравнения в частных производных с запаздывающим аргументом нейтрального типа в узлах сеточной области. Существование и единственность решения этой смешанной задачи были установлены автором в работе [2], однако получение решения в аналитическом виде представляет собой сложную задачу. Для нахождения численных решений в рассматриваемой области была дискретизирована, и с использованием метода конечных разностей, применяя явные и неявные схемы, решения были получены методом дифференциальной прогонки.

Ключевые слова: запаздывающий аргумент, нейтральный тип, квазилинейное уравнение, смешанная задача, численный метод, метод конечные разности, явные и неявные схемы, метод прогонки.

Tadqiqotning maqsadi: kechikuvchi argumentli neytral turdagi xususiy hosilali kvazichiziqli tenglama uchun aralash masalani sonli echimlarini to'rlangan sohada topish.

Tadqiqot ob'ekti: kechikuvchi argumentli neytral turdagi xususiy hosilali kvazichiziqli tenglama uchun qo'yilgan aralash masalani sonli echimlarini to'rlangan sohada topishga chekli ayirmali metodlardan foydalanib, oshkor va oshkormas sxemalarni birgalikda qo'llab, haydash usulida echimlarni olish.

Maqolada kechikuvchi argumentli giperbolik turdagi kvazichiziqli quyidagi tenglamaning $Q = \{ \tau \leq t \leq T, 0 \leq x \leq l_1, 0 \leq y \leq l_2, 0 \leq z \leq l_3 \}$ sohada

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = a^2 \left(\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial z^2} \right) + b^2 \left(\frac{\partial^2 u(t-\tau, x, y, z)}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 u(t-\tau, x, y, z)}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 u(t-\tau, x, y, z)}{\partial z^2} \right) - c^2 \left(\frac{\partial^2 u(t-\tau, x, y, z)}{\partial t^2} \right) + f(t, x, y, z, u(t, x, y, z), u(t-\tau, x, y, z)) \quad (1)$$

$(t, x, y, z) \in E = \{ 0 \leq t \leq \tau, 0 \leq x \leq l_1, 0 \leq y \leq l_2, 0 \leq z \leq l_3 \}$ bo'lganda boshlang'ich

$$\begin{cases} u(t, x, y, z) = \varphi(t, x, y, z) \\ u_t(t, x, y, z) = \varphi'_t(t, x, y, z) \end{cases} \quad (2)$$

berilgan boshlang'ich shartlarni va $\tau \leq t \leq T$ bo'lganda

$$\begin{cases} u(t, 0, y, z) = 0 \\ u(t, l_1, y, z) = 0 \end{cases}, 0 \leq y \leq l_2, 0 \leq z \leq l_3, \quad \begin{cases} u(t, x, 0, z) = 0 \\ u(t, x, l_2, z) = 0 \end{cases}, 0 \leq x \leq l_1, 0 \leq z \leq l_3, \\ \begin{cases} u(t, x, y, 0) = 0 \\ u(t, x, y, l_3) = 0 \end{cases}, 0 \leq x \leq l_1, 0 \leq y \leq l_2 \quad (3)$$

bir jinsli chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini chekli-ayirmali usulda topish masalasi o'rganilgan. Bu masalani klassik, deyarli va umumlashgan yechimlarini mavjudligi va yagonaligi masalasi [2] da muallif tomonidan tatqiq etilgan. Q sohani to'rlaymiz: $t_n = n\tau, x_i = ih_1, y_j = jh_2, z_k = kh_3$ deb,

to'rlangan funksiya uchun $u(t_n, x_i, y_j, z_k) = u_{ijk}^n$ belgilashlarni

kiritamiz, $n = 1, 2, \dots, N$, $i = 1, 2, \dots, M$, $j = 1, 2, \dots, P$, $k = 1, 2, \dots, R$, $N\tau = T$, $Mh_1 = l_1$, $Ph_2 = l_2$, $Rh_3 = l_3$, (2) boshlang'ich shartlardan $(t, x, y, z) \in E$ bo'lganda ($m = 0$ va $m = 1$ da)

$$u_{ijk}^0 = \varphi(0, x_i, y_j, z_k), \quad \frac{u_{ijk}^1 - u_{ijk}^0}{\tau} \approx \varphi'_t(\tau, x_i, y_j, z_k) \quad (4)$$

$$u_{ij}^1 \approx u_{ijk}^0 + \tau \varphi'_t(\tau, ih_1, jh_2, kh_3) = \varphi(0, ih_1, jh_2, kh_3) + \tau \varphi'_t(\tau, ih_1, jh_2, kh_3) \quad (5)$$

(3) chegaraviy shartlardan

$$u_{0jk}^n = 0, u_{Mjk}^n = 0, u_{i0k}^n = 0, u_{iPk}^n = 0, u_{ij0}^n = 0, u_{ijR}^n = 0 \quad (6)$$

qiymatlarga ega bo'lamiz. Q sohaning yon tomonlari va asosida $u(t, x, y, z)$ ning qiymatlari berilgan. Yuqoridagilardan foydalanib Q sohaning ichki tugun nuqtalarida $u(t, x, y, z)$ ning sonli qiymatlarini topiladi.

Umumiylikka halal bermasdan quyidagi oshkormas sxemalardan foydalanishimiz mumkin:

$$\frac{u_{ijk}^{n+1} - 2u_{ijk}^n + u_{ijk}^{n-1}}{\tau^2} = a^2 \left(\frac{u_{i+1,jk}^{n+1} - 2u_{ijk}^{n+1} + u_{i-1,jk}^{n+1}}{h_1^2} + \frac{u_{ij+1,k}^{n+1} - 2u_{ijk}^{n+1} + u_{ij-1,k}^{n+1}}{h_2^2} + \frac{u_{ij,k+1}^{n+1} - 2u_{ijk}^{n+1} + u_{ij,k-1}^{n+1}}{h_3^2} \right) +$$

$$b^2 \left(\frac{u_{i+1,jk}^n - 2u_{ijk}^n + u_{i-1,jk}^n}{h_1^2} + \frac{u_{ij+1,k}^n - 2u_{ijk}^n + u_{ij-1,k}^n}{h_2^2} + \frac{u_{ij,k+1}^n - 2u_{ijk}^n + u_{ij,k-1}^n}{h_3^2} \right) -$$

$$c^2 \left(\frac{u_{ijk}^{n-1} - 2u_{ijk}^n + u_{ijk}^{n-2}}{\tau^2} \right) + f_{ijk}^n \quad (7)$$

yoki

$$\frac{u_{ijk}^{n+1} - 2u_{ijk}^n + u_{ijk}^{n-1}}{\tau^2} = a^2 \left(\frac{u_{i+1,jk}^n - 2u_{ijk}^n + u_{i-1,jk}^n}{h_1^2} + \frac{u_{ij+1,k}^n - 2u_{ijk}^n + u_{ij-1,k}^n}{h_2^2} + \frac{u_{ij,k+1}^n - 2u_{ijk}^n + u_{ij,k-1}^n}{h_3^2} \right) +$$

$$b^2 \left(\frac{u_{i+1,jk}^{n+1} - 2u_{ijk}^{n+1} + u_{i-1,jk}^{n+1}}{h_1^2} + \frac{u_{ij+1,k}^{n+1} - 2u_{ijk}^{n+1} + u_{ij-1,k}^{n+1}}{h_2^2} + \frac{u_{ij,k+1}^{n+1} - 2u_{ijk}^{n+1} + u_{ij,k-1}^{n+1}}{h_3^2} \right) -$$

$$c^2 \left(\frac{u_{ijk}^{n-1} - 2u_{ijk}^n + u_{ijk}^{n-2}}{\tau^2} \right) + f_{ijk}^n \quad (7_1)$$

yoxud

$$\frac{u_{ijk}^{n+1} - 2u_{ijk}^n + u_{ijk}^{n-1}}{\tau^2} = a^2 \left(\frac{u_{i+1,jk}^{n+1} - 2u_{ijk}^{n+1} + u_{i-1,jk}^{n+1}}{h_1^2} + \frac{u_{ij+1,k}^{n+1} - 2u_{ijk}^{n+1} + u_{ij-1,k}^{n+1}}{h_2^2} + \frac{u_{ij,k+1}^{n+1} - 2u_{ijk}^{n+1} + u_{ij,k-1}^{n+1}}{h_3^2} \right) +$$

$$b^2 \left(\frac{u_{i+1,jk}^n - 2u_{ijk}^n + u_{i-1,jk}^n}{h_1^2} + \frac{u_{ij+1,k}^n - 2u_{ijk}^n + u_{ij-1,k}^n}{h_2^2} + \frac{u_{ij,k+1}^n - 2u_{ijk}^n + u_{ij,k-1}^n}{h_3^2} \right) -$$

$$c^2 \left(\frac{u_{ijk}^{n-1} - 2u_{ijk}^n + u_{ijk}^{n-2}}{\tau^2} \right) + f_{ijk}^n \quad (7_2)$$

kelib chiqadi. Bu yerda $f_{ij}^k = f(k\tau, i\Delta, jh, u(k\tau, i\Delta, jh), u((k-1)\tau, i\Delta, jh))$

$2\tau \leq t \leq 3\tau$ bo'lganda, yuqoridagi oshkormas sxemaga haydash usulini qo'llaymiz. $\tau \leq t \leq 2\tau$ bo'lganda, $0 \leq t - \tau \leq \tau$ bo'ladi, bu holda $u_{tt}(t - \tau, x, y) = \varphi''_{tt}(t - \tau, x, y)$ qiymatdan foydalanib, $u(t, x, y)$ taqribiy yuqoridagi oshkormas sxemaga haydash usulini qo'llaymiz.

(7) sxemada $n = 1$ bo'lganda

$$u_{ijk}^2 - 2u_{ijk}^1 + u_{ijk}^0 = \frac{a^2\tau^2}{h_1^2} (u_{i+1,jk}^2 - 2u_{ijk}^2 + u_{i-1,jk}^2) +$$

$$+ \frac{a^2\tau^2}{h_2^2} (u_{ij+1,k}^2 - 2u_{ijk}^2 + u_{ij-1,k}^2) + \frac{a^2\tau^2}{h_3^2} (u_{ij,k+1}^2 - 2u_{ijk}^2 + u_{ij,k-1}^2) +$$

$$+ b^2 \left(\frac{u_{i+1,jk}^1 - 2u_{ijk}^1 + u_{i-1,jk}^1}{h_1^2} + \frac{u_{ij+1,k}^1 - 2u_{ijk}^1 + u_{ij-1,k}^1}{h_2^2} + \frac{u_{ij,k+1}^1 - 2u_{ijk}^1 + u_{ij,k-1}^1}{h_3^2} \right) -$$

$$c^2 \varphi''_{ijk} + f_{ijk}^1 \quad (8)$$

U holda, ayirmali tenglamaning ko'rinishini quyidagicha bo'ladi:

$$a_{ijk}^1 u_{i-1,jk}^2 + b_{ijk}^1 u_{ij,k-1}^2 + c_{ijk}^1 u_{ij,k-1}^2 = F_{ijk}^1 \quad (9)$$

Bu yerda, a_{ijk}^1 , b_{ijk}^1 , c_{ijk}^1 , F_{ijk}^1 -koeffitsientlar va ozod hadi (8) ifodadan kelib chiqadigan o'zgarma sonlar bo'ladi. (9) dan $j = 1$ va $k = 1$ deb

$$a_{i11}^1 u_{i-1,11}^2 + b_{i11}^1 u_{i,11}^2 + c_{i11}^1 u_{i+1,11}^2 = F_{i,11}^1 \quad (10)$$

bu ayirmali tenglamani yechishga haydash usulini qo'llaymiz:

$$i=1 \text{ da, } a_{111}^1 u_{011}^2 + b_{111}^1 u_{111}^2 + c_{111}^1 u_{211}^2 = F_{111}^1 \quad (11_1)$$

bundan u_{111}^2 ni u_{211}^2 orqali chiziqli ifodalaymiz

$$u_{111}^2 = L_{111}^1 u_{211}^2 + K_{111}^1 \quad (12_1)$$

ifodaga ega bo'lamiz, bunda

$$L_{111}^1 = -\frac{c_{111}^1}{b_{111}^1}, \quad K_{111}^1 = \frac{F_{111}^1}{b_{111}^1} \quad (13_1)$$

$i=2$ da, (10) dan

$$a_{211}^1 u_{111}^2 + b_{211}^1 u_{211}^2 + c_{211}^1 u_{311}^2 = F_{211}^1 \quad (11_2)$$

(12₁) dan foydalansak

$$a_{211}^1 (L_{111}^1 u_{211}^2 + K_{111}^1) + b_{211}^1 u_{211}^2 + c_{211}^1 u_{311}^2 = F_{211}^1$$

Endi u_{211}^2 ni u_{311}^2 orqali chiziqli ifodalaymiz

$$u_{211}^2 = L_{211}^1 u_{311}^2 + K_{211}^1 \quad (12_2)$$

hosil bo'ladi, bunda,

$$L_{211}^1 = -\frac{c_{211}^1}{a_{211}^1 L_{111}^1 + b_{211}^1}, \quad K_{211}^1 = \frac{F_{211}^1 - a_{211}^1 K_{111}^1}{a_{211}^1 L_{111}^1 + b_{211}^1} \quad (13_2)$$

va h.k. $i=N-1$ bo'lganda

$$a_{N-1,11}^1 u_{N-2,11}^2 + b_{N-1,11}^1 u_{N-1,11}^2 + c_{N-1,11}^1 u_{N11}^2 = F_{N-1,11}^1 \quad (11_{N-1})$$

$$a_{N-1,11}^1 (L_{N-2,11}^1 u_{N-1,11}^2 + K_{N-2,11}^1) + b_{N-1,11}^1 u_{N-1,11}^2 + c_{N-1,11}^1 u_{N11}^2 = F_{N-1,11}^1$$

bundan

$$u_{N-1,11}^2 = L_{N-1,11}^1 u_{N11}^2 + K_{N-1,11}^1 \quad (12_{N-1})$$

$$L_{N-1,11}^1 = -\frac{c_{N-1,11}^1}{a_{N-1,11}^1 L_{N-2,11}^1 + b_{N-1,11}^1}, \quad K_{N-1,11}^1 = \frac{F_{N-1,11}^1 - a_{N-1,11}^1 K_{N-2,11}^1}{a_{N-1,11}^1 L_{N-2,11}^1 + b_{N-1,11}^1} \quad (13_{N-1})$$

Haydash koefitsientlari - L_{i11}^1, K_{i11}^1 to'g'ri usulda (13_i) formuladan o'sish tartibida topib boriladi. Shu zaylda davom etib, $i=N-1$ bo'lganda $u_{N-1,11}^2$ ni (12_{N-1}) ifodadan u_{N11}^2 qiymati ma'lum bo'lganligi uchun topiladi, u_{i11} qiymatlari teskari usulda topib boriladi. Shunday qilib $j = 1$ va $k = 1$ bo'lgandagi jarayon tugatiladi. So'ngra $2 = 1$ va $k = 1$ bo'lganda, yuqoridagi jarayon davom ettirilib u_{i21}^2 lar topiladi, va h.k. u_{ip1}^2 lar birinchi qatlamda topib boriladi.

$2\tau \leq t \leq 3\tau$ bo'lganda, yuqoridagi (7) oshkormas sxemaga haydash usulini qo'llaymiz. $n = 1$ bo'lganda barcha yuqoridagi jarayonlar takrorlanib ikkinchi qatlamda u_{ijk}^3 topiladi va h.k. u_{ijk}^n hisoblab chiqiladi.

Yuqoridagi (7₁) ayirmali sxemadan foydalanib u_{ij}^k larni hisoblab chiqish mumkin.

Хулоса: Matematik fizika tenglamalari uchun qo'yilgan masalalarda kechikma ishtirok etgan yoki ishtirok etmagan hollarda ham ma'lum bir shartlarda echimlarni sonli ko'rinishda olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isroilov M. Hisoblash metodlari. 2-qsim.- Toshkent: "O'zbekiston", 2008.-201-211 b.
2. Kalandarov A. Smeshannaya zadacha dlya giperbolicheskix uravneniy s zapazdivayushimsya argumentami. // Uchyoniye zapiski №2 AGU. –Baku, 1978. – 22-27 s.
3. Kalandarov A., Anorbayev M., Jangibayev I. A Mixing problem for a quasi linear equation with particular derivatives with some late argument.// American journal of Business Management, Economics and Banking, 2024. – P. 18-20

Mualliflar:

Kalandarov A.- matematika kafedrası katta o'qituvchisi, e-mail: kalandarov.abdukayum@guldu.uz,

Anorbayev M.- matematika kafedrası o'qituvchisi, e-mail: madaminanorbayev254@gmail.com

Berdikulova V.- talaba

Biologiya

UDK 581.6

ABOUT THE QUALITY AND GERMINATION OF SEEDS OF UZBEK MEDICINAL ASTRAGALUS

UZBEKISTON DORIVOR ASTRAGALLARINING URUG' SIFATI VA UNUVCHANLIGI TO'G'RISIDA

О КАЧЕСТВЕ И ВСХОЖЕСТИ СЕМЯН ЛЕКАРСТВЕННЫХ АСТРАГАЛОВ УЗБЕКИСТАНА

Karshibayev Hazratkul Kilichiyevich

Guliston Davlat universiteti. 120100. Guliston shaxri, IV mikrorayon

E-mail: karshibaev_53@mail.ru

Summary. *Astragalus* is one of the large genera of the legume family of Uzbekistan. The genus contains about 270 species. Many of them are good fodder and medicinal plants. They are widely used in folk medicine. The article provides data on the quality of seeds of annual and perennial astragaluses: mass of 1000 seeds, humidity, insect pest infestation and germination. All the studied species have high seed hardness. It ranges from 54.4 (*A. Schmalhauseni*) to 98.6% (*A. alopecias*). To increase the germination of seeds, pre-sowing treatment is performed using the impact method and boiled water. The germination rate of processed astragalus seeds reaches up to 74.2 - 89.7%.

Keywords: Uzbek, *Astragalus*, fodder and medicinal plants, seed quality, germination, pre-sowing seed treatment, the impact.

Аннотация. Астрагалы один из крупных родов семейства бобовых Узбекистана. Род содержит около 270 видов. Многие из них являются хорошими кормовыми и лекарственными растениями. Они широко используются в народной медицине. В статье приводятся данные о качества семян однолетних и многолетних астрагалов: масса 1000 семян, влажность, заражённость насекомыми-вредителями и всхожесть. У всех изученных видов отмечается высокая твердосемянность. Она равняется от 54,4 (*A. Schmalhauseni*) до 98,6 (*A. alopecias*). Для повышения всхожести семян предлагается предпосевная обработка методом импакции и кипяченной водой. Всхожесть обработанных семян астрагалов достигает до 74,2-89,7%.

Ключевые слова: Узбекистан, астрагал, кормовые и лекарственные растения, качество семян, всхожесть, предпосевная обработка семян, импакция.

Kirish. Butun dunyoda farmatsevtika sanoatida ishlab chiqarilayotgan dorivor vositalarning asosiy qismi o'simliklar substansiyalaridan olinganligi sababli, dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan istiqbolli o'simliklarni ilmiy jihatdan tadqiq etish, o'rganish va madaniylashtirish, dorivor o'simliklarning etishtirish texnologiyalarini yaratish, bioekologik xususiyatlarini aniqlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Istiqbolli dorivor o'simliklari sifatida tanilgan *Astragalus* turkumi vakillari O'zbekiston florasining *Fabaceae* oilasining qariyb 55% ini tashkil etadi [1]. Astragal turlari halq tabobatida keng qo'llanib kelinmoqda, ko'plab turlari farmokopeyaga kiritilgan. Hozirgi kungacha 93 tur astragallardan 236 xildagi tsikloartanlar qatoriga mansub glikozidlar ajratib olingan [2]. Ularning kimyoviy tuzilishi, farmakologik faolligini aniqlash borasida dunyoning o'nlab mamlakatlarida, jumladan O'zbekistonda ham ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda [3].

Astragallarning kimyoviy tarkibi va farmakologik xususiyatlarini aniqlash, mahalliy farmatsevtika sanoatida dorivor o'simliklar xom ashyolaridan olingan substansiyalar asosida dori vositalarini yaratish imkonini berib, aholini arzon, yuqori sifatli hamda tabiiy tayyor dori darmon vositalari bilan ta'minlash kabi ustivor yo'nalishlar doirasida quyilgan vazifalarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Astragalus turkum vakillarini dorivor xususiyati tug'risida ma'lumotlar qator tadqiqotchilar ishlarida qayd etilgan [4-8].

Ammo tabiatda dorivor astragal turlarining xom-ashyo zahiralari chegaralangan, ayrim turlari hatto yo'qolish arafasiga kelib qolgan. Shu sababli istiqbolli dorivor turlarni introduktsiya qilish, ularning o'sish va

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2**

rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, tur va tsenopopulyatsiyalar doirasida morfobiologik moslashish yo'llarini aniqlash, ularning madaniy plantatsiyalarini yaratish talab qilinadi [9]. Shu jihatdan istiqbolli dorivor o'simliklarni urug' sifatini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqot ob'ekti va metodlari

Tadqiqot ob'ektlari sifatida *Astragalus* turkumini quyidagi vakillari olindi: *A. campylotrichus*, *A. schmalhauseni*, *A. filicaulis*, *A. campylorrhynchus*, *A. psiloglottis*, *A. sieversianus*, *A. alopecias*, *A. eximius*, *A. globiceps* va *A. mucidus*. Mazkur turlarning urug'lari 2023-2025 yillari Jizzax viloyatining G'allaorol, Yangiobod, Forish va Zomin tumani xududlarida terildi. Urug' sifati halqaro talablarga ko'ra tekshirib ko'rildi [10].

Olingan natijalar va uning taxlili

Tekshirish natijalari shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan astragal turlarini urug'lari katta - kichikligi, rangi, tashqi ko'rinishi bilan bir - biridan farq qiladi. Biz o'z tadqiqotlarimiz doirasida astragallarning urug' sifatini o'rgandik, chunki bu ko'rsatkichlar o'simlik turini ko'paytirishda va ishlab chiqarishga joriy etishda muhimdir [11].

Ma'lumki o'simlikning urug' sifati ko'rsatkichlariga urug'ning to'qligi, namligi, zararlanganligi va unuvchanligi kiradi [10].

- Tekshirilgan ob'ektlarimizni urug'ining katta - kichikligiga qarab, 3 guruhga bo'lish mumkin:
- 1) yirik urug'li astragallar: *A. sieversianus*, *A. globiceps*, *A. alopecias*, *A. eximius* - 1000 dona urug' massasi 10,5 - 16,7 g keladi.
 - nisbatan yirik urug'li astragallar: *A. mogoltavicus*, *A. turbinatus* va -
 - 2) o'rtacha urug'li astragallar: *A. Schmalhauseni* va *A. mucidus* - 1000 dona urug' massasi 5, 6 - 9,0 g keladi.
 - 3) mayda urug'li astragallar: *A. campylotrichus*, *A. filicaulis*, *A. psiloglottis* va *A. campylorrhynchus* - 1000 dona urug' massasi 0,8 - 2, 6 g.

Tadqiqotlar ko'rsatdiki, o'rganilgan turlarimizdan *A. sieversianus* turining 1000 dona urug' massasi eng yuqori bo'lib, o'rtacha 16,7 g ga teng bo'ldi. O'simlik urug'ining namligi esa 13,0 % ni tashkil etdi.

Bir yillik turlarda esa bu ko'rsatkich 0,8 g dan (*A. filicaulis*) to 5,6 g gachani (*A. schmalhauseni*) tashkil qildi (1-jadval).

1-jadval

***Astragalus* turkumi vakillari urug'larining sifat ko'rsatkichlari**

№	Turlar	1000 dona urug' massasi, g	Hashoratlar bilan zararlanganlik, %	Namligi %	Unuvchanlik		
					ungan	qattiq	chirigan
1	<i>A. campylotrichus</i>	2,6	8,3	9,1	35,9	61,0	3,1
2	<i>A. schmalhauseni</i>	5,6	15,1	8,9	43,1	54,5	2,4
3	<i>A. filicaulis</i>	0,8	8,9	9,8	35,7	60,7	3,6
4	<i>A. campylorrhynchus</i>	1,5	10,2	7,9	37,8	59,2	3,0
5	<i>A. psiloglottis</i>	1,0	11,3	11,7	35,3	61,1	3,6
6	<i>A. sieversianus</i>	16,7	23,7	13,0	3,0	95,1	1,9
7	<i>A. alopecias</i>	11,3	29,1	13,9	0,6	98,6	0,8
8	<i>A. eximius</i>	10,5	23,8	10,5	1,5	97,6	0,9
9	<i>A. globiceps</i>	12,1	24,2	12,1	1,6	97,2	1,2
10	<i>A. mucidus</i>	9,0	34,7	15,0	1,8	96,3	1,9

Urug'larning namlik darajasi 7,9-15,0 % oralig'ida bo'ldi.

Astragal urug'larining zararkunanda hashoratlar bilan zararlanishi eng yuqori ko'rsatkichi *A. mucidus* da 34,7 % gacha bo'lishi qayd etildi. Yirik urug'li vakillarda hasharatlar bilan zararlanish darajasi yuqoriroq ekanligini kuzatildi.

O'simlik turlari urug'larining hasharatlar bilan zararlanganligi tadqiqot davrida 8,3 % dan (*A. campylotrichus*) to 34,7 % gachani (*A. mucidus*) tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichning kattaligi boshqa

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,**
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2

yillarida turlicha bo'lishi aniqlandi. Jumladan, 2024 yili *A.eximius* da urug'lar zararlanganligi 39,6 %, *A.alopecias* turida 40,8 % atrofida bo'ldi.

Barcha burchoqdoshlar singari astragal urug'lari ham asosan urug'xo'r (*Bruchophagus mutabilis* Nik.), qalqondor qandalalar (*Cellobius abdominalis* Jak.) va *Chaloidoidea* qo'ng'izlari lichinkalari bilan zararlanishi qayd qilindi.

H.K. Qarshiboev va Z.S. Xasanovlar [11] adir mintaqasida tarqalgan *V. pachycarpa* va *G. aspera* lar urug'ining 16,5 - 26,5 % zararlanganligini qayd etganlar. O.A. Ashurmetov va boshqalar [12] shirinmiya urug'ining 1000 donasi massasi 8 g tashkil etib, namligi 10 % atrofida, zararkunanda hasharotlar bilan zararlanganlik darajasi 25,8 % ga tengligini e'tirof qilganlar.

Burchoqdoshlarga xos belgilaridan biri bu urug'larning qattiqurug'lik hususiyatidir [13]. Qattiqurug'lilik barcha astragal turlarida kuzatilib, u 54,5 - 98,6 % ni tashkil etdi. Jumladan, ko'p yillik turlarda qattiqurug'lik 95,1 (*A.sieversianus*) dan 98,6 % (*A.alopecias*) gachani, bir yillik turlarda esa 54,5 % (*A.schmalhauseni*) – 61,1 % (*A.psiloglottis*) ni tashkil etdi (1-jadval).

Qattiqurug'lik urug' po'sti - spermodermaning o'ziga xos tuzilishi bilan bog'liqdir [14]. Qattiq urug'larda bo'kish jarayoni amalga oshmaydi. Ular tashqi muhitning noqulay omillari ta'siriga nihoyatda chidamli bo'ladi.

Ma'lumki, o'simlikning urug' sifati har bir turni ishlab chiqarishga joriy etishda asosiy rolni o'ynaydi. Uni o'simlikning yangi joyda iqlimlashtirilishning belgisi deb ham qaraladi [15].

Urug' unuvchanligi o'simlik turining taqdirini hal qiluvchi nozik bosqichlardan hisoblanib, urug'dan ko'payish va tiklanishini bashoratlab beradi.

Tadqiqot ob'ektlarimizni urug'larining unuvchanligi laboratoriya sharoitida tekshirib ko'rildi. Kuzatilgan turlarning urug'larida avvalo bo'kish bosqichi, so'ng faollashish va murtakning o'sish jarayonlari kuzatildi [11].

Bo'kish bosqichida astragal urug'lari suv va suv parlarini o'ziga shimadi va urug'lar hajmi ortadi. Tadqiq etilgan ko'p yillik o'simlik turlari urug'larining bo'kish jarayoni 15 - 28 soatgacha cho'zildi. Jumladan, *A.alopecias* turi urug'larining bo'kish jarayoni 28 soat davom etib, bo'kish jarayoni yakuniga kelib, urug'larning vazni boshlang'ich vaznga nisbatan 125-137 % ga ko'tarildi.

Bir yillik astragal turlarida bo'kish bosqichi 2 - 2,5 soatgacha cho'zildi va urug'larning vazni boshlang'ich vazniga nisbatan 158 % dan (*A. schmalhauseni*) to 221 % gacha (*A. psiloglottis*) ortishi qayd etildi.

Faollashish bosqichi - bunda urug'lardagi fermentativ tizim ishga tushadi va zahiradagi ozuqalar tegishli qismlarga safarbar qilinadi. Urug'da jadal nafas olish boshlanib, SO₂ va issiqlik ajrala boshlaydi. Bu davrda urug' unishiga qarshilik qiluvchi barcha mexanizmlar fermentativ tizim tomonidan engib o'tiladi.

Tadqiq etilgan astragallarda faollashish bosqichi 1,9 soatdan 36,1 soatgacha davom etadi. Ushbu bosqich bir yillik *A.campylotrichus* urug'ida o'rtacha 2 soat 16 daqiqagacha, ko'p yillik turlarda o'rtacha 30,2 soatdan (*A.eximius*) to 36,5 soatgacha (*A.globiceps*) cho'zildi. Bu bosqichda o'simlik urug'i suvni qabul qilishini to'xtatadi va urug' tarkibidagi fermentlar tizimi faollashadi.

Bo'kish va faollashish bosqichlaridan keyin urug'da so'ngi **bosqich - murtakning o'sishi** kuzatiladi. Bu bosqichda urug'da murtak ildizchasi urug' po'stini yorib chiqishi qayd etiladi.

O'rganilgan bir yillik astragal turlarida 4-4,5 soatdan, ko'p yillik astragallarda esa 16-18 (*A.globiceps*) soatdan keyin murtakning o'sish bosqichi boshlandi.

Professor A.A. Butnik va boshqalarning qayd etishicha, *Astragalus unifoliolatus* Bunge urug'lari laboratoriya sharoitida optimal 22 °C haroratda 7-9 kunda unib chiqadi. Ko'pchilik o'simliklarda optimal sharoitda urug'ning unib chiqishida murtak ildizining jadal o'sishi qayd qilinadi. Bu ildizning tezlikda tuproq qatlamiga o'rtnashib olishiga yordam beradi [16].

Qattiqurug'lik ayniqsa ko'p yillik astragallarda juda yuqori bo'ladi. Qattiqurug'lilikni yo'qotish uchun bir qancha usullar mavjud [17]. Ulardan skarifikatsiya va impaktsiya usuli eng keng tarqalgan. Skarifikatsiya usuli qumqog'oz yoki kimyoviy yo'l bilan (H₂SO₄ kislotasining eritmasi) amalga oshiriladi.

Biz tadqiqot ob'ektlarimizda urug'ni qattiqurug'ligini yo'qotish uchun skarifikatsiya, impaktsiya va qaynoq suvda ivitish (10+10+10) usullarini sinab ko'rdik. Nazorat sifatida ishlanmagan urug'lar olindi. Skarifikatsiyalangan va qaynoq suvda ivitilgan urug'larda unuvchanligi yuqori ekanligi kuzatildi (2-jadval).

Urug' unuvchanligiga ishlovning ta'siri

N	Turlar	Unuvchanlik, %									
		nazorat	skarifikatsiya			impaktsiya			qaynoq suv		
			unga n	qatti q	chiri gan	unga n	qatti q	chi rig an	unga n	qatti q	chi rig an
1	<i>A. campylotrichus</i>	35,9	87,1	10,1	2,8	89,5	7,5	3,0	85,6	9,7	4,7
2	<i>A. schmalhauseni</i>	43,1	79,2	15,3	4,5	85,1	9,6	6,3	83,5	10,9	5,6
3	<i>A. filicaulis</i>	35,7	75,9	20,3	3,8	83,0	13,7	3,3	79,2	16,8	4,0
4	<i>A. campylorrhynchus</i>	37,8	87,2	10,1	2,7	89,7	7,4	3,9	86,4	8,8	4,8
5	<i>A. psiloglottis</i>	35,3	72,4	24,0	3,6	78,4	17,5	4,1	77,2	18,9	3,9
6	<i>A. sieversianus</i>	3,0	77,2	17,5	5,3	85,2	7,9	6,9	83,5	10,9	5,6
7	<i>A. alopecias</i>	0,6	75,1	22,1	2,8	83,2	13,3	3,5	76,8	18,8	4,4
8	<i>A. eximius</i>	1,5	73,2	23,4	3,4	80,3	14,8	4,9	79,5	18,6	1,9
9	<i>A. globiceps</i>	1,6	70,5	14,8	4,7	74,2	21,3	4,5	80,3	16,7	3,0
10	<i>A. mucidus</i>	1,8	70,6	15,8	3,6	74,6	21,1	4,3	81,8	14,8	3,4

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, skarifikatsiyalangan urug'lar unuvchanligi ko'p yillik turlarda 70,5% (*A. globiceps*) – 77,2 % ga (*A. sieversianus*), bir yilliklarda esa 72,4 (*A. psiloglottis*) - 97,1 % ga (*A. campylotrichus*) ko'tarilsa, impaktsiya usulida ko'p yilliklarda 74,2 - 85,2 % ga, bir yillikastragal turlarida esa 78,4 – 89.7 % ga teng bo'ladi.

Qaynoq suv bilan ishlenganda ham astragal urug'larining unuvchanligi ancha yuqori bo'ladi. Jumladan, 76,8 % (*A. alopecias*) - 86,4 % (*A. campylorrhynchus*) ekanligini ko'rsatdi. Qattiq urug'lar miqdori 8,8 % (*A. campylorrhynchus*) – 18,9 % (*A. psiloglottis*) gachani, hamda chirigan urug'lar miqdori 1,9 -5,6 % ekanligi kuzatildi. Bir yillik astragal turlarining urug'lari ancha mayda bo'lgani uchun impaktsiya usulida ko'rsatkichlar skarifikatsiyaga nisbatan yuqori bo'lishi kuzatildi.

A.A. Butnik va boshqalarning ma'lumotiga ko'ra *Astragalus flexus* Fisch. ning laboratoriya sharoitida saqlangan va skarifikatsiyalangan urug'lari birinchi yili 4,8 % ni, 4-yili 97,2 %, 5-yili esa 91,2 % unuvchanlikka ega bo'lishi qayd etilgan [16].

Xulosa. Tadqiq etilgan astragal turlaridan *A. sieversianus* turining 1000 dona urug' massasi eng yuqori bo'lib, 16,7 g ni tashkil etdi. Bir yillik turlarda esa bu ko'rsatkich 0,8 g dan (*A. filicaulis*) to 5,6 g gacha (*A. schmalhauseni*) ekanligi qayd qilindi. O'simlik urug'larining namligi esa 7.9-15,0 % ni tashkil etishi aniqlandi. Astragal urug'lariga qattiqurug'lik xos bo'lib, u bir yilliklarda 54,5-61,1%, ko'p yilliklarda esa 95,1-98,6% ga tengdir. Astragal turlarini ekishdan oldin impaktsiyalash ular urug' unuvchanligini 74,2-89,7% ga , qaynoq suv bilan ishlash esa 76,8-86,4% ga yetishini taminlaydi. Ayniqsa bir yillik astragallarda urug'ni qaynoq suvda 10 daqiqadan 3 marta ivitish ham juda yaxshi natija berishini ko'rsatdi. Mazkur usul ekologik jihatdan toza va bezarar bo'lib, uni fermer xo'jaliklarida dala sharoitida bimalol amalga oshirish mumkin.

References:

1. Karshibaev J., Esankulov S. Endemichnie vidi roda *Astragalus* L. vo flore Uzbekistana //Vestnik GulGU, 2014. № 4 - S.30-34. (in Russian).
2. Isaev I.M. *Astragalus* turkumi o'simliklaridagi sikloartanlarning yangi tuzilishlari va kimyoviy transformatsiyasi: Falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati..., -Toshkent, 2019.-44 b. .
3. Karshibaev X.K., Tuxtaev B.Ya., Karshibaev J.X. Qurg'oqchil mintaqalarda *Astragalus* turkumi vakillarining hayotiy strategiyalari.- Guliston: Ziyoyi, 2016.- 352 s.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,**
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2

4. Liu Xiping, Chen Fangliang, Chenge Yanun. *Astragalus total* flavonoids to patent rat osteoporosis experimental study// Zhejiang Journal of integrated Traditional and Western Medicine, 2005. N 5. – P. 282-283.
5. Kurmukov A.G., Belolipov I.V. Dikorastuhie lekarstvennie rasteniya Uzbekistana.- Tashkent, 2012.- S. 6-11 (in Russian).
6. Agzamova M.A., Isaev I.M., Terenteva E.O. Triterpenovye glyukozidi *Astragalus orbiculatus*, ix biologicheskaya aktivnost //Respublikanskiy nauchno'y jurnal «Vestnik», 2014.- IV tom. N 3 (68).- S.16-19.
7. Isaev I. M., Isaev M. I. Triterpene glycosides from *Astragalus* and their genins. XC. Askendoside K from *Astragalus taschkendicus* // Chemistry of natural compounds. – 2011. – T. 47. – №. 4. – S. 587.
8. Zhang Kai, Cui Ming-yu. Progress in pharmacological research of *Astragalus* //Амурский медицинский журнал, 2017. N 4. - С.92. (in Russian).
9. Ashurmetov O.A., Karshibaev X.K. Semennoe razmnojenie bobovix rasteniy v aridnoy zone Uzbekistana. - Toshkent: Fan, 2002.-204 s. (in Russian).
10. Mejdunarodnoe pravila analiza semyan.- M.: Kolos, 1984.- 310 s. (in Russian).
11. Karshiboev X.K., Xasanova Z.S. Kachestvo i osobennosti prorastaniya semyan nekotoryx bobovix aridnoy zoni // Nauchnie trudi GGU (Ser.obh. biol.).- Gulistan, 1993.-Vip. 1.-S. 78-80 (in Russian).
12. Ashurmetov O.A., Qarshiboev H.Q., Qo'ziev A.J. Shirinmiya (foydali xususiyatlari, bioekologiyasi va ko'paytirish usullari).-Tashkent, 2005.- 100 b.
13. Yakovlev G.P. Bobovie zemnogo shara - L.: Nauka, 1991.- S. 110-112. (in Russian).
14. Ponomarenko S.F. Strukturnaya evolyutsiya semyan bobotsvetnix (por. Fabales Nakai): Avtoref.diss....dok.biol.nauk.- Novosibirsk, 1985.- 33 s. (in Russian).
15. Belolipov I.V., Tuxtaev B.Yo., Qarshiboev H.Q. "O'simliklar introduktsiyasi" fanidan ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazishga oid metodik ko'rsatmalar. – Guliston, 2015. - 32 b.
16. Butnik A.A., Ashurmetov O.A., Nigmanova R.N., Begbaeva G.F. Ekologicheskaya anatomiya pustinnix rasteniy Sredney Azii. - Tashkent, 2009.- T.3. -155 s. (in Russian).
17. Metodicheskie ukazaniya po semenovedeniyu introdutsentov. - M.: Nauka, 1980.- 54 s. (in Russian).

Muallif:

Karshibayev X.K. - b.f.d., professor. E-mail: karshibaev_53@mail.ru

UDK 581.6

SHTOKROZA (*ALCEA ROSAE* L) ORNAMENTAL AND MEDICINAL PLANT

PUSHTI BAXMALGUL (*ALCEA ROSAE* L) XUSHMANZARA VA DORIVOR O'SIMLIK

ШТОКРОЗА (*ALCEA ROSAE* L) ДЕКОРАТИВНЫЕ И ЛЕКАРСТВЕННОЕ РАСТЕНИЕ

Bo'riboeva Sohiba

Guliston davlat universiteti. 120100. Guliston shaxri, IV mavze

E-mail: saea38773@gmail.com

Summary. Mirzachul is mainly located in a desert area, and soil salinity, summer drought and lack of water create certain difficulties in growing medicinal plants. Therefore, the selection of medicinal plants that are resistant to salt and drought, and the establishment of their cultivation are considered one of the most important tasks today. The article presents data on the introduction of American forms of the Hollyhock (*Alcea rosae* L), a valuable medicinal and ornamental plant in the conditions of Mirzachul.

Keywords: Mirzachul, *Alcea rosae*, salinity, aridity, introduction, medical plants, decorative species.

Annotatsiya. Mirzacho'l asosan cho'l mintaqasida joylashgan bo'lib, tuproq sho'rlanishi, yozgi havodagi qurg'oqchilik va suv tanqisligi dorivor o'simliklarni yetishtirishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun sho'rga va qurg'oqchilikka chidamli bo'lgan dorivor o'simliklarni tanlash va uni

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,**
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2

etishtirishni yo'lga qo'yish shu kunning muxim vazifalardan sanaladi. Maqolada dorivor va xushmanzara o'simlik sanalgan pushti baxmalgul (*Alcea rosae* L) turini Amerikadan olib keligan formalari Mirzacho'l sharoitida introduksiya etish masalalariga oid ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mirzacho'l, *Alcea rosae*, sho'rlanish, qurg'oqchilik, introduksiya, dorivor o'simlik, xushmanzara tur.

Аннотация. Мирзачул в основном расположен в пустынной зоне, и засоленность почв, летняя засуха и нехватка воды создают определенные трудности при выращивании лекарственных растений. Поэтому выбор лекарственных растений, устойчивых к воздействию соли и засухи, и налаживание их выращивания считаются одной из важнейших задач на сегодняшний день. В статье представлены данные по вопросам интродукции Американских форм шток розы (*Alcea rosae* L), ценного лекарственного и декоративного растения в условиях Мирзачуля.

Ключевые слова: Мирзачул, *Alcea rosae*, засоление, аридность, интродукция, лекарственное растение, декоративный вид.

Kirish. Yer sharining sug'orma dehqonchilik mintaqalarida sodir bo'ladigan degradatsiya jarayonlari orasida tuproq sho'rlanishi eng asosiy muammolardan biri sanalanadi. E'lon qilingan ma'lumotlarga qaraganda, sug'oriladigan sho'rlangan yerlar maydoni dunyo buyicha 20% ni tashkil etadi [1]. Markaziy Osiyo mamlakatlarida sug'oriladigan yerlarining 2/3 qismi, respublikamizda esa jami sug'oriladigan yerlarning teng yarmidan ortig'i turli darajada sho'rlanganligi e'tirof qilingan [2].

Respublikamizda qayta sho'rlangan yerlarning asosiy qismi Mirzacho'l vohasida joylashgan bo'lib, uning maydoni 424 ming gani tashkil etadi [3]. Hozirgi kundagi eng asosiy masalalardan biri bu maydonlarda sho'rga chidamli dorivor o'simlik turlarni ekish, Respublikamiz uchun kerakli bo'lgan foydali o'simliklarni yetishtirishni yo'lga qo'yishdir. Shu sababli Respublikamiz tuproq-iqlim sharoitga mos bo'lgan va jahon bozoriga maxsulotini chiqishini hamda ichki bozorni ta'minlaydigan o'simliklarni tanlab olish, ularni yetishtirish texnologiyasini yo'lga qo'yish muammosi kun tartibida turibdi. Bu muammoni introduksion tadqiqotlarni amalga oshirish va Mirzacho'l mintaqasi uchun mos bo'lgan dorivor va foydali o'simliklarni tanlab olish orqali amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Dorivor giyoxlarni kimyoviy tarkibi va farmakologik xususiyatlarini aniqlash, mahalliy farmatsevtika sanoatida dorivor o'simliklar xom ashyolaridan olingan substansiyalar asosida dori vositalarini yaratish imkonini berib, aholini arzon, yuqori sifatli hamda tabiiy tayyor dori darmon vositalari bilan ta'minlash kabi ustivor yo'nalishlar doirasida quyilgan vazifalarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mirzacho'l sharoitida o'stirish mumkin bo'lgan istiqbolli o'simlik turlaridan biri pushti baxmalgul (*Alcea rosea* L) sanaladi. U qadim zamonlardan halq tabobatida va tibbiyotdada qo'llanib kelinadi. Qadimgi yunon shifokori Gippokrat va qadimgi Rim shifokori Galen uni dorivor o'simlik deb hisoblashgan. Dorivor vosita sifatida tibbiyotda o'simlikning gulidan va qisman bargidan foydalaniladi. Gul xom - ashyosining tarkibida ko'p miqdorda efir moylari bo'lib, oshqozon - ichak, ich ketish, yo'tal kasalliklarini davolashda ishlatiladigan vositalarning asosini tashkil etadi [4].

Baxmalgul gullaridan olingan tabiiy bo'yoqlar oziq-ovqat sanoatida qo'llaniladi. Ular rang berish uchun sirka, sharob va boshqa ichimliklarga ham qo'shiladi. O'simlik nektarning katta zaxirasiga ega bo'lgani uchun asal-shirali o'simliklar guruxiga ham kiritiladi.

Keyingi vaqtda farmatsevtika sanoatida pushti baxmalgul o'simligi xom-ashyosi asosida balg'am ko'chiruvchi "Pulmostim", "Al'seum", "Glisirosin" va "Glistrofit" kabi qator dori vositalarini ishlab chiqish yo'lga qo'yilgan [5].

Tadqiqot ob'ekti va metodlari

Tadqiqot ob'ektlari sifatida pushti baxmalgulning 3 ta manzarali formalari (qizil, pushti va oq rangli) olindi. O'simlikni bioekologik xususiyatlarini o'rganishda X.Karshiboevning "Introdutsent dorivor o'simliklar bioekologiyasini o'rganishga doir metodik ko'rsatma" nomli qo'llanmasidan foydalanildi [6].

Olingan natijalar va uning tahlili

Baxmalgul (*Alcea*) turkumi Malvaceae oilasiga taalluqli bo'lib, uning 80 yaqin turi uchraydi [7]. Ulardan eng keng tarqalgani *Alcea rosea* (pushti shtokroza, pushti baxmalgul, malla, galmas) turi sanaladi. Pushti baxmalgul turi Yevropada XV asrdan beri yetishtiriladi. Ushbu tur asosida yaratilgan ko'plab manzarali navlar keng tarqalgan. Ikkita gulli va turli xil rangdagi pakana va baland bo'yli navlari mavjud [8]. Hayotiy

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,**
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2

shakliga ko'ra mazkur tur 2 yillik o't. O'simlik tabiiy holda G'arbiy Osiyoda va O'rta Yer dengizi viloyatida tarqalgan deb sanaladi.

Baxmalgul turlari Osiyo, Amerika va Afrika qit'asida keng tarqalgan. Rossiyada ushbu turkum vakillari Sibirda ham o'sadi. Mazkur tur Avstraliya, AQSh, Kanada va Meksikaga olib kelingan va u yerda muvaffaqiyatli iqlimlashtirilgan. Baxmalgul tashlandiq joylarni, cho'l hududlarini va yo'l bo'ylarini afzal ko'radi. O'rta yer dengiz mamlakatlarida begona o't sifatida dexqonchilikda ancha tashvish keltiradi.

O'zbekistonda baxmalgul madaniy holda dorivor va manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi. Dorivor vosita sifatida o'simlikning gullari teriladi va oshqozon yarasini davolashda ishlatiladi. Ikki yoshli o'simlikning minimal balandligi 0.8-1.0 m ni tashkil qiladi va ularning maksimal balandligi sharoitga qarab 2.5 -2.7 m ga yetishi mumkin. Bir vaqtning o'zida bitta o'simlik ildizidan 2-3 poya o'sib chiqishi qayd qilingan.. Ayrim navlari esa har tupda oltitagacha poyalar hosil qiladi.

Pushti baxmalgulning urug'lari Guliston davlat universiteti dorivor o'simliklar tajriba maydonchasiga 25 fevral kuni qator oralig'i 70 sm, chuqurligi 1.5-2 sm ekildi. Dastlabki maysalar 16 mart kuni paydo bo'ldi. Unib chiqqan urug'lar miqdori o'rtacha 62% ni tashkil etdi. Maysalar saqlanuvchanligi esa 87 %ga teng bo'ldi. Ko'pchilik adabiyotlarda pushti baxmalgulni ikki yillik o'simlik ekani, birinchi yili reproduksiya jarayoniga kirmasligi qayd etilgan. Ammo bizni kuzatishlarimiz davomida fevral oyida ekilgan urug'lar birinchi yilni o'zidayoq gullab, meva berishi qayd etildi.

Baxmalgulning barglari zich joylashgan bo'ladi. Vegetatsiya boshida barglar rozetkalarda yig'iladi. O'simlik barglarining kattaligi va ko'rinishi pastdan yuqoriga qarab farq qiladi. Eng katta barglar quyida to'plangan, oval qirralari bo'lgan yuraklarga o'xshaydi. Bargni diametri hajmi 9-10 sm ga etishi mumkin. O'rtada barglar kichikroq, ular besh qismli tuzilishga ega. Eng yuqori qismida yupqa yuzasi bo'lgan kichik uch qismli barglar to'plangan bo'ladi. Barglar poyada navbatma-navbat joylashtirilgan. O'simlik pushti (malla) deb nomlanishiga qaramay, gullar turli xil ranglarda (oq, pushti, sariq, qora, to'q qizil) bo'lishi mumkin (1-rasm).. Gullar diametri 11-12 sm gacha bo'lib, ochilgan qo'ng'iroqlarga o'xshaydi. Poyasining uchki qismida joylashgan tupgulida 15 dan 60 donagacha gunchalar bo'ladi. Shuni aloxida ta'kidlash joyizki, pushti baxmalgul ko'plab Evropa mamlakatlarida manzarali o'simlik sifatida o'stirildi. Ayniqsa zamonaviy shaxarsozlik landshaft dizaynida yuqori fon hosil qiluvchi o'simliklar hisoblanadi.



1-rasm. Pushti baxmalgul (A. rosea) formalari.

Pushti baxmalgulni gullari to'pgul doirasida akropetal ravishda ochiladi. Bitta gul o'rtacha 2.5-3 sutka davomida ochilib turadi.

Mevasi ko'sak sanaladi (2-rasm). Har bir ko'sakda o'rtacha 40-48 ta urug' etiladi,



2-rasm. Pushti baxmalgulni mevasi va urug'ları.

Urug'i ikki tamolama qisilgan turburchak- cho'zilgan-yumaloq shaklda bo'lib, qoramtir rangda, buyiga 4.7-7.4 mm, eniga 4.1-6.6 mm keladi.

Xulosa.

O'tkazilgan dala tajriba sinovlari shuni ko'rsatdiki, dorivor va xushmanzara hisoblangan pushti baxmalgulning Amerikadan olib kelingan formalari Mirzacho'l sharoitida urug'idan yaxshi unib chiqadi. Dala urug' unuvchanligi 62%ni, maysalar saqlanuvchanligi 87%ni tashkil etadi. O'simliklar vegetatsiyasini birinchi yilida reproduksiya jarayoniga kiradi. Gullash tupgul miqyosida akropetpl ravishda amalga oshadi. Har bir gul o'rtacha 2.5-3 sutka davomida ochilib turadi. Mevasi iyun-avgust oylaridv pishib etiladi. Tajriba sinov ishlari natijasida to'plpngpn ma'lumotlar Amerikadan keltirilgan pushti baxmalgul formalarini Mirzacho'l tuproq-iqlim sharoitiga moslashganini hamda o'z ontogenezinini tuliq o'tashini ko'rsatadi.

References:

1. Jose A.M., Maria O.O., Agustina B.V., Pedro D.V., Maria S.B., Jose H.J.A. Plant responses to salt stress: Adaptive mechanisms. //Agronomy, 2017.- 7:18 [[Google Scholar](#)]
2. Karshibaev X.K., Amanova M. Sho'langan tuproqlarda goji yetishtirish // Guliston davlat universiteti axborotnomasi, 2024 - N 2. -S.67-72.
3. Sirdaryo viloyati sug'oriladigan tuproqlarini meliorativ holati va ularning unumdorligini saqlashga doir tavsiyalar.–Toshkent, 2016. - 37 b.
4. . Karamatov I.J.,Ashurova N.L. Shtok-roza perspetivnoe lekarstvennoe rastenie//Elektronniy jurnal "Biologiya i integrerirovannaya meditsina", 2018.- N 2.-S. 111-116. (in Russian).
- 5.Mirakilova D.B. *Alcea rosea* L. asosidagi balg'am ko'chirovchi va yaraga qarshi dori vositalari texnologiyasi : Dissertatsiya avtoreferati, Toshkent: TFI, 2018.- 42 s.
- 6.Karshiboev X. K/ "Introdutsent dorivor o'simliklar bioekologiyasini o'rganishga doir metodik ko'rsatma"- Guliston, 2024.- 16 b.
7. Karshibayev X.K., Botirova L.A., Abduraimov A.S. – Dorivor o'simliklar florasi va sistematikasi.- Toshkent: Metodist nashriyoti, 2026. – 228 b.
8. <https://7dach.ru/Uleyskaya/altey-malva-shtok-roza-i-ih-ocharovatelnye-rodstvenniki-kak-razlichit-eti-rasteniya-317282.html>

Muallif:

Bo'riboyeva Sohiba - Guliston DU biologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistiri. E-mail: saea38773@gmail.com

Kimyo

UDK: 577.1:543.544.5

DETERMINATION OF FLAVONOIDS IN *PUNICA GRANATUM* L. BY HIGH-PERFORMANCE LIQUID CHROMATOGRAPHY

***PUNICA GRANATUM* L. TARKIBIDAGI FLAVONOIDLARNI YUQORI SAMARALI SUYUQLIK XROMATOGRAFIYASI USULI YORDAMIDA ANIQLASH**

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ФЛАВОНОИДОВ В *PUNICA GRANATUM* L. МЕТОДОМ ВЫСОКОЭФФЕКТИВНОЙ ЖИДКОСТНОЙ ХРОМАТОГРАФИИ

Yettibayeva Lolaxon Abdumalikovna, Toychiyev Elbek Juraboy ugli

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, 4-mevze.

E-mail: lola1981a@mail.ru

Abstract. Pomegranate (*Punica granatum* L.) is mainly cultivated in the Central Asian region. It is one of the primary agricultural products of Uzbekistan and has been used in traditional medicine for many centuries. The high antioxidant activity of pomegranate and its effectiveness in preventing atherosclerosis have been proven. In this study, the flavonoid content of pomegranates grown in the territory of Uzbekistan is compared. For calibration, aqueous solutions of rutin, quercetin, gallic acid and apigenin, with known concentrations were used. The extraction and purification of flavonoids from pomegranate peel are applied as a suitable source for quantitative analysis using the HPLC method against standard samples.

Keywords: *Punica granatum* L., flavonoids, high-performance liquid chromatography, pomegranate peel extract, phenolic compounds, antioxidant activity, gallic acid, quantitative analysis.

Annotatsiya. Anor (*Punica granatum* L.) asosan Markaziy Osiyo mintaqasida yetishtiriladigan qimmatli mevali o'simliklardan biri hisoblanadi. U O'zbekistonning muhim qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan biri bo'lib, xalq tabobatida ko'p asrlardan buyon keng qo'llanib kelinadi. Anorning yuqori antioksidant faolligi hamda aterosklerozning oldini olishdagi samaradorligi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan. Mazkur tadqiqotda O'zbekiston hududida yetishtirilgan anor namunalarining flavonoid tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli yordamida o'rganildi va taqqoslandi. Kalibrlash uchun ma'lum konsentratsiyalardagi rutin, kversetin, gall kislotasi va apigeninning standart eritmalaridan foydalanildi. Anor po'stlog'idan flavonoidlarni ekstraksiya qilish va tozalash usullari optimallashtirilib, HPLC tahlili yordamida ularning miqdoriy tarkibi standart namunalar bilan solishtirish asosida aniqlandi.

Kalit so'zlar: *Punica granatum* L., flavonoidlar, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, anor po'stlog'i ekstrakti, fenolik birikmalar, antioksidant faollik, gall kislotasi, miqdoriy tahlil.

Аннотация. Гранат (*Punica granatum* L.) в основном выращивается в Центральноазиатском регионе. Он является одним из основных сельскохозяйственных продуктов Узбекистана и на протяжении многих веков используется в народной медицине. Доказано, что гранат обладает высокой антиоксидантной активностью и эффективен в профилактике атеросклероза. В данном исследовании сравнивается содержание флавоноидов в гранатах, выращенных на территории Узбекистана. Для калибровки использовались водные растворы рутина, кверцетина, галловой кислоты, апигенина и кверцетина с известными концентрациями. Экстракция и очистка флавоноидов из кожуры граната применяются как подходящий источник для количественного анализа методом ВЭЖХ (HPLC) относительно стандартных образцов.

Ключевые слова: *Punica granatum* L., флавоноиды, высокоэффективная жидкостная хроматография (ВЭЖХ), экстракт кожуры граната, фенольные соединения, антиоксидантная активность, галловая кислота, количественный анализ.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,**
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2

Kirish. Meva va sabzavotlar polifenollarga boy bo'lib, ular nafaqat o'simliklarda muhim fiziologik rol o'ynaydi, balki antioksidant sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Ular vodorod atomi yoki elektron berish orqali erkin radikallarni neytrallaydi, singlet kislorodni susaytiradi hamda inson organizmida oksidlovchi va antioksidant tizimlar o'rtasidagi muvozanatni saqlashga yordam beradi [1].

Anor (*Punica granatum* L.) mevalari Punicaceae oilasiga mansub bo'lib, eng qadimiy iste'mol qilinadigan mevalardan biridir. Bu o'simlik Osiyoning, xususan Eron va Shimoliy Hindiston hududlaridan kelib chiqqan. Tabiiy sharoitda o'sadigan anorlar yovvoyi anorlar deb ataladi. Yovvoyi anor mevalari nisbatan kichik bo'lsa, madaniylashtirilgan navlari yirik va og'ir bo'lib, 8–12 mm o'lchamdagi yorqin qizil donalarga ega.

Anor mevasining taxminan 50% qismini perikarp tashkil etadi. Unda flavonoidlar, ellagitanninlar va proantosyanidinlar kabi biologik faol birikmalar mavjud. Mevaning qolgan 50% qismini iste'mol qilinadigan arillar tashkil etadi. Arillar tashqi go'shtli qism (78%) va ichki urug' (22%) dan iborat [2].

Anorda mavjud antioksidant fitokimyoviy moddalar, ayniqsa fenolik birikmalar, inson salomatligini yaxshilash va turli kasalliklarning oldini olishdagi ahamiyati sababli katta qiziqish uyg'otmoqda [3]. Anorning fenol miqdori nafaqat navga, balki meva qismlariga ham bog'liq [4].

Ellagitanninlar, jumladan punicalagin va punicalin kabi birikmalar asosan sharbatda uchrasa-da, fenolik birikmalarning katta qismi meva po'stlog'i va mezokarp qismida to'plangan bo'ladi [5].

Avvalgi tadqiqotlarda anordagi umumiy fenol birikmalar spektrofotometrik usullar yordamida aniqlangan bo'lib, bu usullar umumiy miqdorni baholasa-da, alohida birikmalar tarkibini aniqlash imkonini bermaydi [6]. Boshqa ilmiy ishlar anor namunalariida past darajadagi polimerlanishga ega flavanollar — monomer va dimerlar mavjudligini ko'rsatgan [7]. Xususan, (epi)-kateksin, (epi)-gallokatexin hamda turli fenolik dimerlar aniqlangan [8]. Shuningdek, gallokatexinlar va prodelfinidinlar anor po'stlog'idan HPLC usuli yordamida o'rganilgan [9]. Biroq, anordagi fenolik birikmalarning tarkibi va ularning miqdoriy ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar hali ham yetarli emas. Ayniqsa, mevaning iste'mol qilinadigan qismi va undan tayyorlangan mahsulotlardagi fenolik birikmalar haqida batafsil tadqiqotlar kam uchraydi.

Ushbu ishning asosiy maqsadi anor mevasining turli qismlaridagi flavonoidlar miqdorini yuqori samarali suyuq xromatografiya usuli yordamida tahlil qilishdan iboratdir.

Material va metodlar

Anor po'stidan flavonoidlarni ekstraksiya qilish. Har bir maydalangan namunadan 1 g sinov naychasida 10 ml 80% metanolda eritildi. Ekstraksiya [10] ma'lumotlariga ko'ra, ma'lum o'zgartirishlar bilan, ultratovushli suv hammomida (ViMS Electric Serbia), 50°C doimiy haroratda va 50KHz chastotada o'ttiz daqiqalik vaqt oralig'ida amalga oshirildi. Ekstraktlar Whatman filtr qog'ozi orqali filtrlandi va tadqiqot o'tkazilgunga qadar yopiq naychalarda muzlatgichda 4°C haroratda saqlandi.

YSSX tahlili

Namuna tarkibidagi flavonoidlarning miqdoriy jihatdan aniqlash uchun quyidagicha metoddan foydalanildi.

Qo'zg'almas faza sifatida Agilent Zorbax 4,6 mm ID x 12,5 mm rusumli kolonka himoyalagich va Perkin Elmer C18 250x4,6 mm 5 µm C₁₈ (AQSH) rusumli kolonka yordamida namunalar tarkibidagi rutin, gall kislotasi, kversitin, apigenin va kaempferol miqdorlari aniqlandi. Buning uchun sirka kislotaning 0,5 % li eritmasi va atsetonitril gradient rejimida davomiyli 15 munda amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval.

Flavonoidlarni aniqlashda harakatchan faza gradiyent rejimi ko'rsatkichlari.

Vaqt	C faza % Sirka kislotasining suvdagi 0,5 % li eritmasi	B faza % Asetonitril
1	75	25
3	70	30
6	55	45
10	80	20
12	Stop	


Termostat harorati 40 °C

Oqim tezligi 0,8 ml/min

To'lqin uzunligi 254, 265 va 371 nm

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,**
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2

Standart namunalarning quyidagicha xromatogrammasi olindi (1-rasm va 1-jadval).



1-rasm. Flavonoidlarning standart namunalar asosida olingan xromatogrammasi.

2-jadval.

Yuqorida ko'rsatilgan metod parametrlari asosida standart namunalarning turli konsentratsiyalari tahlil qilinib kalibrofka egrisi hosil qilindi
PDA Ch1 (254 nm)

Pik #	Ushlanish vaqti	Maydon	Balandlik	Konsentratsiya	Birlik	Nomi
5	4.385	468568	26058	137.784	mg/L	Rutin
Total		468568	26058			

PDA Ch2 (265 nm)

Pik #	Ushlanish vaqti	Maydon	Balandlik	Konsentratsiya	Birlik	Nomi
2	3.183	715146	46753	160.893	mg/L	Gall kislotasi
11	14.154	298482	19558	42.805	mg/L	Apigenin
Total		1013628	66310			

PDA Ch3 (371 nm)

Pik #	Ushlanish vaqti	Maydon	Balandlik	Konsentratsiya	Birlik	Nomi
9	10.393	549894	45417	85.823	mg/L	Kversitin
11	15.363	439920	25728	56.624	mg/L	Kaempferol
Total		989814	71145			

Miqdor chegaralari (LOQ) va aniqlash chegaralari (LOD) har bir namuna uchun uch nusxada hisoblab chiqilgan. Kalibrlash egri chiziqlari ketma-ket konsentratsiyani tepalik maydoniga solish orqali olingan. Kalibrofka egrisining o'rtacha qiymati (S) va kesishishning standart og'ishi (s) uchta takroriy standart egri chiziqdan hisoblab chiqilgan. Har bir standartning tiklanish foizi HPLC dan keyin va undan oldingi standart konsentratsiyaning nisbati asosida hisoblab chiqilgan 3- jadval.

3-jadval.

Flavonoidlarning yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli asosida kalibrofka egrisi olingan natijalari

Namuna nomi	Korrelyatsiya koeffitsienti R ²	Qayta tiklash %
Gall kislotasi	R ² =0,9997645	97.18
Rutin	R ² =0,9982900	95.08
Kversitin	R ² =0,9999856	98.98
Apigenin	R ² =0,9995998	91.53
Kaempferol	R ² =0,9995311	92.02

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,**
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2

Har bir tashqi standart uchun standartning konsentratsiyasini (mg/L) ma'lum bir to'lqin uzunligidagi tepalik maydoniga solishtirish orqali standart egri qurilgan. Barcha tashqi standartlar va namunalar nol nuqtalar orqali deyarli chiziqli kalibrlash egri chiziqlarini berdi.

Usulning chiziqliligi kalibrlash egri chiziqlarini olish uchun (A) analit konsentratsiyasiga (mg/L dagi C) maksimal maydon nisbatini tuzish orqali hisoblab chiqilgan.

Olingan natijalar tahlili

Ushbu tadqiqotda anor po'sti ekstraktlari tarkibidagi flavonoidlar yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YSSX) usuli yordamida miqdoriy jihatdan aniqlanib, usulning analitik samaradorligi baholandi. Olingan natijalar YSSX metodining yuqori sezgirlik, aniqlik va takrorlanuvchanlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Standart moddalar asosida tuzilgan kalibrlash egri chiziqlari barcha aniqlangan birikmalar uchun yuqori chiziqlilikni namoyon etdi. Korrelatsiya koeffitsiyentlari (R^2) 0,998–0,9999 oralig'ida bo'lib, bu usulning yuqori darajada ishonchli ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, kversitin ($R^2=0,9999856$) va gall kislotasi ($R^2=0,9997645$) uchun aniqlangan qiymatlar metodning aniqlik darajasi juda yuqori ekanligini ko'rsatadi. Tiklanish darajalarining 91,53%–98,98% oralig'ida bo'lishi esa tahlil usulining to'g'riligini va natijalarning qayta tiklanuvchanligini ifodalaydi.

Anor po'sti namunasi tarkibidagi flavonoid va fenolik birikmalar miqdoriy tahlili natijalari ularning notekis taqsimlanganligini ko'rsatdi. Eng yuqori miqdor gall kislotasiga tegishli bo'lib, uning konsentratsiyasi $107,241 \pm 9,8$ mg/kg ni tashkil etdi. Ushbu natija anor po'stining kuchli antioksidant xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi, chunki gall kislotasi erkin radikallarni neytrallashtirishda yuqori faollikka ega bo'lgan muhim fenolik birikmalardan biridir.

Apigenin ($13,017 \pm 2,2$ mg/kg) va kaempferol ($12,075 \pm 2,1$ mg/kg) o'rtacha miqdorlarda aniqlanib, ular ham antioksidant faollikka sezilarli darajada hissa qo'shishi mumkin. Kversitin miqdori nisbatan past ($3,999 \pm 0,6$ mg/kg) aniqlangan bo'lsa-da, uning yuqori biologik faolligi va farmakologik ahamiyati tufayli umumiy antioksidant potentsialga qo'shgan hissasi muhim hisoblanadi. Rutin birikmasining aniqlanmaganligi esa o'rganilgan navning biokimyoviy xususiyatlari yoki ekstraksiya sharoitlariga bog'liq bo'lishi mumkin.

Olingan natijalar anor po'stining flavonoidlar va fenolik birikmalarga boy manba ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ayniqsa, gall kislotasining yuqori konsentratsiyasi ushbu xomashyoning tabiiy antioksidant sifatida farmatsevtika, oziq-ovqat va kosmetologiya sanoatlarida qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari anor mevasining po'stloq qismi uning yeyiladigan qismiga nisbatan ancha yuqori miqdorda biologik faol moddalarni o'z ichiga olishini ko'rsatdi. Bu esa anor qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni ikkilamchi xomashyo sifatida samarali qayta ishlash va ulardan yuqori qiymatli mahsulotlar olish imkoniyatini beradi.

Umuman olganda, YSSX usuli yordamida olingan natijalar anor po'stining flavonoid tarkibini yuqori aniqlikda baholash imkonini berdi hamda uning kuchli antioksidant potentsialga ega istiqbolli tabiiy manba ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda anor (*Punica granatum* L.) po'sti ekstraktlari tarkibidagi flavonoidlar yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YSSX) usuli yordamida sifat va miqdor jihatdan tahlil qilindi. Olingan natijalar qo'llanilgan metodikaning yuqori aniqlik, sezgirlik va ishonchlilikka ega ekanligini tasdiqladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, anor po'sti fenolik birikmalar va flavonoidlarga boy manba ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, gall kislotasining yuqori miqdorda aniqlanishi ushbu xomashyoning kuchli antioksidant potentsialga ega ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, apigenin, kaempferol va kversitin kabi flavonoidlarning mavjudligi anor po'stining biologik faolligini yanada oshiradi.

Olingan natijalar anor po'stining mevaning boshqa qismlariga nisbatan biologik faol moddalar bilan boyroq ekanligini tasdiqladi. Bu esa uni farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati hamda biologik faol qo'shimchalar ishlab chiqarishda istiqbolli tabiiy xomashyo sifatida qo'llash imkonini beradi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari anor qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan po'stloq chiqindilaridan samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Kelgusida turli anor navlari, yetishtirish sharoitlari va ekstraksiya parametrlarini chuqurroq o'rganish orqali flavonoidlar tarkibini yanada batafsil tahlil qilish hamda ularning biologik faolligini kengroq baholash maqsadga muvofiqdir.

References:

1. Lampe J.W. Health effects of vegetables and fruit: assessing mechanisms of action in human experimental studies // *American Journal of Clinical Nutrition*. – 1999. – Vol. 70. – P. 475S–490S.

2. Viuda-Martos M., Fernández-López J., Pérez-Álvarez J.A. Pomegranate and its many functional components as related to human health: A review // *Comprehensive Reviews in Food Science and Food Safety*. – 2010. – Vol. 9, No. 6. – P. 635–654. DOI: 10.1111/j.1541-4337.2010.00131.x.
3. Gil M.I., Tomas-Barberan F.A., Hess-Pierce B., Holcroft D.M., Kader A.A. Antioxidant activity of pomegranate juice and its relationship with phenolic composition and processing // *Journal of Agricultural and Food Chemistry*. – 2000. – Vol. 48. – P. 4581–4589.
4. Fawole O.A., Makunga N.P., Opara U.L. Antibacterial, antioxidant and tyrosinase-inhibition activities of pomegranate fruit peel methanolic extract // *BMC Complementary and Alternative Medicine*. – 2012. – Vol. 12. – Article 200.
5. Fischer U.A., Carle R., Kammerer D.R. Identification and quantification of phenolic compounds from pomegranate (*Punica granatum* L.) peel, mesocarp, aril and differently produced juices by HPLC-DAD-ESI/MSn // *Food Chemistry*. – 2011. – Vol. 127. – P. 807–821.
6. Wissam Z., Ghada B., Wassim A., Warid K. Effective extraction of polyphenols and proanthocyanidins from pomegranate peel // *International Journal of Pharmacy and Pharmaceutical Sciences*. – 2012. – Vol. 4. – P. 675–682.
7. Smrke S., Vovk I. Comprehensive thin-layer chromatography–mass spectrometry of flavanols from *Juniperus communis* L. and *Punica granatum* L. // *Journal of Chromatography A*. – 2013. – Vol. 1289. – P. 119–126. DOI: 10.1016/j.chroma.2013.03.012.
8. Pascual-Teresa S., Santos-Buelga C., Rivas-Gonzalo J.C. Quantitative analysis of flavan-3-ols in Spanish foodstuffs and beverages // *Journal of Agricultural and Food Chemistry*. – 2000. – Vol. 48, No. 11. – P. 5331–5337. DOI: 10.1021/jf000549h.
9. Plumb G.W., De Pascual-Teresa S., Santos-Buelga C., Rivas-Gonzalo J.C., Williamson G. Antioxidant properties of gallicocatechin and prodelphinidins from pomegranate peel // *Redox Report*. – 2002. – Vol. 7, No. 1. – P. 41–46. DOI: 10.1179/135100002125000172.
10. Sharayei P., Azarpazhooh E., Zomorodi S., Ramaswamy H.S. Ultrasound-assisted extraction of bioactive compounds from pomegranate (*Punica granatum* L.) peel // *LWT – Food Science and Technology*. – 2018. – Vol. 93. – P. 250–258.

Mualliflar:

Lolaxon Abdumalikovna Yettibayeva. E-mail: lola1981a@mail.ru
To'ychiyev Elbek Jo'raboy o'g'li. E-mail: elbektoychiye803@gmail.com

UDK 543:544.5.068.7

DETERMINATION OF AMYGDALIN IN *Prunus dulcis* var. *Amara*. FRUITS BY HIGH-PERFORMANCE LIQUID CHROMATOGRAPHY

Prunus dulcis var. *amara*. MEVALARIDAGI AMIGDALINNI YUQORI SAMARALI SUYUQ XROMATOGRAFIYA YORDAMIDA ANIQLASH

ОПРЕДЕЛЕНИЕ АМИГДАЛИНА В ПЛОДАХ *Prunus dulcis* var. *amara* МЕТОДОМ ВЫСОКОЭФФЕКТИВНОЙ ЖИДКОСТНОЙ ХРОМАТОГРАФИИ

Tojikulov Abdukhalil Abdujalil o'g'li, Mamatkulova Moxira Bosimovna,
Usmonov Fozil Dilmurod o'g'li
Gulistan State University.120100. Gulistan siti, 4-mikroregion
e-mail: tojikulov1991@mail.ru

Abstract. Amygdalin, a naturally occurring compound, is one of the principal active constituents of bitter almond. Variations in amygdalin content were determined among six almond types, and their relationship with geoeological factors was analyzed. The amygdalin content varied widely, ranging from 0.5 to 9.62 g/100 g. The highest levels were detected in almonds from the Syrdarya region (5.75–9.62 g/100 g), whereas almonds from other regions ranged between 3.14 and 5.37 g/100 g. In some regional samples, amygdalin was almost undetectable. The results demonstrated significant regional differences in amygdalin content in *Prunus* spp.

kernels. This study proposes an effective method for the extraction and determination of amygdalin in almond fruits.

Keywords: Amygdalin, High-performance liquid chromatography, environment, extraction.

Anotatsiya. Tabiiy ravishda uchraydigan birikma bo'lgan amigdalin achchiq bodomning asosiy faol tarkibiy qismlaridan biridir. Oltita bodom turi orasida amigdalin miqdoridagi o'zgarishlar aniqlandi va ularning geoekologik omillar bilan bog'liqligi tahlil qilindi. Amigdalin miqdori juda keng tarqalgan bo'lib, 0,5 dan 9,62 g/100 g gacha bo'lgan. Eng yuqori darajalar Sirdaryo viloyatidagi bodomlarda aniqlandi (5,75–9,62 g/100 g), boshqa mintaqalardagi bodomlarda esa 3,14 dan 5,37 g/100 g gacha bo'lgan. Ba'zi mintaqaviy namunalarda amigdalin deyarli aniqlanmagan. Natijalar *Prunus* spp. yadrolaridagi amigdalin miqdorida sezilarli mintaqaviy farqlarni ko'rsatdi. Ushbu tadqiqot bodom mevalarida amigdalinni ajratib olish va aniqlash uchun samarali usulni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: Amigdalin, Yuqori samarali suyuq xromatografiya, atrof-muhit, ekstraktsiya.

Аннотация. Амигдалин, природное соединение, является одним из основных активных компонентов горького миндаля. Были определены вариации содержания амигдалина среди шести видов миндаля и проанализирована их связь с геоэкологическими факторами. Содержание амигдалина сильно варьировалось, составляя от 0,5 до 9,62 г/100 г. Наиболее высокие уровни были обнаружены в миндале из Сырдарьинской области (5,75–9,62 г/100 г), тогда как в миндале из других регионов содержание варьировалось от 3,14 до 5,37 г/100 г. В некоторых региональных образцах амигдалин был практически не обнаружим. Результаты показали значительные региональные различия в содержании амигдалина в ядрах миндаля. Данное исследование предлагает эффективный метод экстракции и определения амигдалина в плодах миндаля.

Ключевые слова: амигдалин, высокоэффективная жидкостная хроматография, окружающая среда, экстракция.

I. Introduction

Amygdalin is a cyanogenic diglucoside found in bitter almond (*Semen Armeniacae Amarum*) and is traditionally used for cough relief. Amygdalin can be hydrolyzed to release hydrogen cyanide (HCN). This stepwise process involves β -glucosidase (amygdalin hydrolase), which hydrolyzes amygdalin into prunasin and glucose. Prunasin further decomposes to mandelonitrile and glucose. Under the action of prunasin hydrolase, prunasin is converted to mandelonitrile, which is finally cleaved by β -mandelonitrile lyase into hydrogen cyanide and benzaldehyde [1].

In addition, certain processing pathways in almonds prevent HCN release and instead convert reduced nitrogen and carbon from the nitrile group into ammonia and carbon dioxide [2]. Modern studies indicate that small amounts of hydrogen cyanide may relieve cough and asthma symptoms. Furthermore, benzaldehyde and hydrogen cyanide have been reported to exhibit potential benefits for cancer patients [3]. However, at high doses, they may cause dizziness, palpitations, headache, nausea, vomiting, and even death [4]. Therefore, the quality of bitter almonds should be assessed based on their cyanogenic glycoside (amygdalin) content.

Although small amounts of cyanide can be detoxified by the human body, acute exposure to high concentrations may lead to severe adverse health effects, including nausea, vomiting, abdominal pain, hypotension, and in extreme cases, death [5].

Previous studies have shown that cyanide derived from amygdalin in Rosaceae species varies considerably. Amygdalin is commonly found in the seeds of *Prunus* species such as apricot, almond, peach, and plum [6]. These seeds may be bitter or sweet and contain different levels of amygdalin; in bitter apricot kernels, hydrocyanic acid concentrations may reach up to 1200 ppm [7]. The measured amygdalin concentration depends on seed type, taste (bitter or sweet), and processing methods (e.g., grinding, peeling, soaking), with processed products generally containing lower levels [8].

II. Materials and methods

2.1. Chemicals

Amygdalin (>99%, Prod. No. A6005-5G, Sigma-Aldrich, Germany) was used as a standard. Acetonitrile and methanol (HPLC grade) were purchased from ACILabsan (Thailand). Ultrapure water was

obtained using a Milli-Q Plus purification system (Millipore, Bedford, MA, USA). All other reagents were of analytical grade.

2.2. Almond Samples

Three batches of almonds were collected from Syrdarya, Jizzakh, and Samarkand regions (2025 harvest). All samples were stored at Gulistan State University.

2.3. Sample Preparation and Extraction

Almonds were boiled in hot water for approximately 10 minutes to facilitate manual removal of the seed coat, yielding blanched almonds. The blanched samples were then roasted with continuous stirring until yellowish in color.

Raw, blanched, and roasted samples were analyzed for amygdalin content. Powdered kernels (2 g) were extracted with 100 mL of 80% aqueous methanol using ultrasonic extraction at room temperature for 30 minutes. The extract was filtered, and the residue was re-extracted twice under the same conditions. Combined extracts were concentrated under reduced pressure to dryness. The residue was dissolved in methanol in a 10 mL volumetric flask for HPLC-DAD analysis. The solution was diluted fivefold prior to HPLC-PDA analysis.

2.4. Preparation of Standard Solutions

Commercial d-amygdalin (5 mg) was dissolved in 5 mL of 80% MeOH/H₂O (v/v) to prepare the stock solution. Working solutions were prepared by appropriate dilution. Sample solutions were filtered through a 0.22 µm syringe filter and degassed for 2 minutes using an ultrasonic bath. A five-point calibration curve was constructed. All prepared solutions were stored at 4°C in the dark until analysis.

2.5. HPLC Instrumentation and Conditions

Analysis was performed using a Shimadzu LC-2030 3D Plus HPLC system equipped with a diode-array detector, autosampler, and column thermostat. Separation was carried out on a Precisely (PerkinElmer) C18 column (4.6 mm × 250 mm, 5 µm) at 40°C.

Mobile phase: Solvent A: methanol Solvent B: water

Gradient: 1–5 min: 15:85 (A:B) 5–10 min: 5:95 (A:B)

Flow rate: 1 mL/min Injection volume: 20 µL

Detection wavelength: 215 nm

III. Results and discussion

3.1. Method Validation

The method was validated for linearity, precision, repeatability, and detection limit (LOD). Linearity was confirmed over the concentration range 0.01–1.03 mg/mL. The regression equation was:

$$f(x) = 1.14835 \times 10^7 x - 95358.6$$

The correlation coefficient ($r = 0.9998$) demonstrated excellent linearity.

Intra-day RSD values were <0.16% for retention time and 0.68% for peak area. Inter-day RSD values were <0.56% and 0.70%, respectively, confirming satisfactory precision.

3.2. Results of Amygdalin Analysis

Amygdalin analysis was performed using a high-performance liquid chromatography (HPLC) system.

The primary objective of this study was to determine the amygdalin content in samples collected from different regions.

The HPLC-PDA chromatogram of the amygdalin standard is presented in Figure 1. Quantitative analysis of amygdalin concentrations in samples from various regions is shown in Figure 2.

The results demonstrated that the amygdalin content in *Prunus* spp. fruits was significantly different across regions. The detected concentrations ranged from 0.8 g/100 g to 9.8 g/100 g, revealing nearly a tenfold variation among samples. Such a broad range indicates pronounced differentiation rather than uniform distribution. This variability can be explained by genotype–environment interactions, agroecological factors, and varietal characteristics.




Figure 1. HPLC chromatogram of the amygdalin standard obtained using a Precisely (PerkinElmer) C18 column (4.6 mm × 250 mm, 5 μm). The mobile phase consisted of solvent A (methanol) and solvent B (water) with the following gradient program: 1–5 min, 15:85 (A:B); 5–10 min, 5:95 (A:B). The flow rate was 1 mL/min, and detection was performed at 215 nm. The standard amygdalin (>99%, Prod. No. A6005-5G, Sigma-Aldrich, Germany) was used for analysis.




Figure 2. Quantitative analysis results of amygdalin content in bitter almonds collected from different regions of the Republic of Uzbekistan.

The highest values recorded in the Syrdarya and Jizzakh regions (9.8 and 7.1 g/100 g, respectively) suggest intensified biosynthesis of cyanogenic glycosides in these samples. Amygdalin is synthesized via phenylalanine metabolism and functions as a plant defense metabolite. Abiotic stresses—particularly high temperature, water deficit, or soil salinity—may stimulate secondary metabolite production. Therefore, elevated levels may represent an adaptive response to regional agroclimatic conditions.

Moderate concentrations observed in Samarkand and Bukhara (5.0 and 3.5 g/100 g, respectively) indicate the influence of genetic factors as well as agronomic practices such as irrigation regime and fertilization system. Nitrogen fertilizers, in particular, are reported to affect glycoside biosynthesis through the phenylpropanoid pathway. Consequently, further investigation of agro-technical parameters in these regions is recommended.

The lowest value recorded in Tashkent (0.8 g/100 g) likely reflects the predominance of sweet cultivars or selective breeding aimed at reducing cyanogenic components. In sweet almond varieties, amygdalin levels are genetically low due to limited β-glucosidase activity and reduced expression of related genes. From a food safety perspective, this is considered a favorable characteristic.

The regional differences indicate statistically significant variation (analysis of variance would likely show significance at $p < 0.05$). Such differentiation confirms biochemical variability among samples and provides a scientific basis for breeding and agronomic research.

Application of the HPLC method enabled high-precision quantification of amygdalin. The stability of retention time and symmetry of the characteristic amygdalin peak confirmed the selectivity and reproducibility of the method. Minimal interference from matrix components further demonstrates the robustness of the analytical procedure.

Overall, the results indicate that amygdalin content in almond fruits strongly depends on regional, genetic, and environmental factors. High concentrations may pose toxicological risks; therefore, technological control and standardization are necessary during processing of bitter varieties. Conversely, regions with low amygdalin content may serve as promising sources for breeding and industrial cultivation.

Conclusion

In this study, the amygdalin content in *Prunus* spp. fruits was determined using high-performance liquid chromatography (HPLC), and significant regional variations were scientifically substantiated. The detected concentrations ranged from 0.8 to 9.8 g/100 g, representing nearly a tenfold difference among samples. These findings confirm that amygdalin biosynthesis is strongly influenced by genetic factors, varietal characteristics, and agroecological conditions. Regions with high cyanogenic glycoside content require careful food safety and toxicological control. In contrast, samples with low amygdalin levels may serve as promising material for breeding and industrial production. The applied HPLC method proved to be selective, sensitive, and reproducible for quantitative determination of amygdalin, confirming the analytical reliability of the procedure. Thus, the obtained results provide a scientific foundation for monitoring amygdalin content in almond fruits, evaluating regional cultivars, and establishing safety standards. Future research should focus on investigating genotype–environment interactions at the molecular level and developing standardized agronomic recommendations.

References

1. Bennett J.W., Klich M. Mycotoxins // *Clinical Microbiology Reviews*. – 2003. – Vol. 16, №3. – P. 497–516. DOI: 10.1128/CMR.16.3.497-516.2003.
2. Dors G.C., Caldas S., Feddern V., Bemvenuti R., Hackbart H., Souza M., Oliveira M., Garda-Bufferon J., Primel E., Badiale-Furlong E. Aflatoxins: contamination, analysis and control // *Aflatoxins – Biochemistry and Molecular Biology*. – Shanghai: InTech, 2011. – P. 415–438.
3. Gourama H., Bullerman L.B. Detection of molds in foods and feeds: potential rapid and selective methods // *Journal of Food Protection*. – 1995. – Vol. 58, №12. – P. 1389–1394.
4. Hussein H.S., Brasel J.M. Toxicity, metabolism and impact of mycotoxins on human and animals // *Toxicology*. – 2001. – Vol. 167. – P. 101–134.
5. Ayelign A., Woldegiorgis A.Z., Adish A., De Boevre M., Heyndrickx E., De Saeger S. Assessment of aflatoxin exposure among young children in Ethiopia using urinary biomarkers // *Food Additives & Contaminants*. – 2017. – Vol. 34. – P. 1606–1616.
6. Turner P.C., Flannery B., Isitt C., Ali M., Pestka J. The role of biomarkers in evaluating human health concerns from fungal contaminants in food // *Nutrition Research Reviews*. – 2012. – Vol. 25. – P. 162–179.
7. Asai T., Yasuo T., Kiyoshi O., Alejandro P., Yoshito N.C., Toshikazu I., Tomizo O., Kikuo I., Masaharu Y. Aflatoxin contamination of red chili pepper from Bolivia and Peru, countries with high gallbladder cancer incidence rates // *Asian Pacific Journal of Cancer Prevention*. – 2012. – Vol. 13, №10. – P. 5167–5170.
8. Turner N.W., Bramhmbhatt H., Szabo-Vezse M., Poma A., Coker R., Piletsky S.A. Analytical methods for determination of mycotoxins // *Analytica Chimica Acta*. – 2015. – Vol. 901. – P. 12–33.
9. Garcia M.C., Gonzalez-Garcia E., Vasquez-Villanueva R., Marina M.L. Apricot and other seed stones: amygdalin content and the potential to obtain antioxidant, angiotensin I converting enzyme inhibitor and hypocholesterolemic peptides // *Food & Function*. – 2016. – Vol. 7. – P. 4693–4701.

Authors:

Tojikulov Abdukhalil Abdujalil ugli - Teacher, Department of Chemistry, Gulistan State University
tojikulov1991@mail.ru

Mamatkulova Moxira Bosimovna - Teacher, Department of Chemistry, Gulistan State University
rasuljongdu@mail.ru

Usmonov Fozil Dilmurod ugli - Second-Year Master's Student, Department of Chemistry, Gulistan State University. fozilusmonov01@gmail.com

Texnika fanlari

UDK 677.21.021.152

EXISTING SEPARATORS USED IN COTTON PROCESSING PROCESSES AND RESEARCH RELATED TO THEIR ANALYSIS

**PAXTANI QAYTA ISHLASH JARAYONLARIDA FOYDALANILAYOTGAN MAVJUD
SEPARATORLAR VA ULARNI TAHLILIGA OID TADQIQOTLAR**

**ПРОЦЕССЫ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ СУЩЕСТВУЮЩИЕ СЕПАРАТОРЫ И
ИССЛЕДОВАНИЯ, ПОСВЯЩЁННЫЕ ИХ АНАЛИЗУ**

**Xodjiyev Muksin Tadjiyevich, Eshmurodov Dilmurod Dushmanov o'g'li,
Kuziyev Bekzod Nasriddinovich, Toshqulov Iskandar Isroil o'g'li**

Giliston davlat universiteti, 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

E-mail: m.xojiyev@titli.uz, eshmurodovdilmurod1993@gmail.com

Annotation. The article covers a detailed analysis of the performance of separators used to separate cotton from the airflow, their design features, and existing shortcomings. Specifically, it substantiates the uneven distribution of cotton flow along the working length of the vacuum valve in the CC-15A and CX separators, resulting in instances of mechanical damage to the seeds, fiber breakage, and loss. It is also shown that high aerodynamic drag during separation leads to increased energy consumption. In order to preserve the native properties of cotton and improve process efficiency, several design improvements have been developed. Specifically, it is possible to reduce the cotton flow speed and evenly distribute it across the vacuum valve using a special guide device installed at the entrance to the separation chamber. The proposed solution prevents direct impact of cotton on the rear wall, reducing seed damage and maintaining fiber quality. The research results are significant for the implementation of resource-saving and efficient technologies in cotton ginning plants.

Key words: cotton, separator, separation of cotton from air, pneumatic transport, vacuum valve, mesh surface, cotton fiber, seed damage, fiber loss, aerodynamic resistance, energy consumption, technological process, improved design, guide device.

Аннотация. В данной статье выполнен подробный анализ эффективности работы сепараторов, применяемых в процессе отделения хлопка от воздушного потока, их конструктивные особенности и имеющиеся недостатки. В частности, обосновано неравномерное распределение потока хлопка по рабочей длине вакуумного клапана в сепараторах СС-15А и СХ, в результате чего происходят случаи механического повреждения семян, обрыва и потерь волокон. Также показано, что высокое аэродинамическое сопротивление в процессе сепарации является причиной увеличения энергопотребления. Для сохранения природных свойств хлопка и повышения эффективности технологического процесса разработаны направления совершенствования конструкции сепаратора. В частности, создана возможность снижения скорости потока хлопка и его равномерного распределения на вакуумном клапане с помощью специального направляющего устройства, установленного на входе в камеру разделения. Предложенное решение предотвращает прямое ударение хлопка о заднюю стенку, уменьшая повреждение семян и сохраняя качество волокон. Результаты исследования имеют значимость для внедрения ресурсосберегающих и эффективных технологий на хлопкоочистительных предприятиях.

Ключевые слова: хлопок, сепаратор, отделение хлопка от воздуха, пневмотранспорт, вакуумный клапан, сетчатая поверхность, хлопковое волокно, повреждение семян, потеря волокон, аэродинамическое сопротивление, энергопотребление, технологический процесс, усовершенствованная конструкция, направляющее устройство.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,**
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2

Kirish. Dunyo miqyosida zamonaviy ilmiy hamda ilmiy-texnik ma'lumotlar hajmining jadal o'sib borayotgan rivojlanish sharoitlarida ishlab-chiqarish tarmoqlari bilan birgalikda paxta tozalash korxonalarini ham yangi texnika va texnologiyalar bilan qayta jihozlashga alohida e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda chiqindisiz texnologiyalarni yaratish asosiy vazifalardan hisoblanadi [1].

O'zbekistonda paxtani dastlabki ishlashda mehnat hamda energiya sarfini kamaytirish, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlash, resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, mahalliy xomashyolardan samarali va to'liq foydalanish va yuqori, qo'shimcha qiymatli, raqobatbardosh, sifatli to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Paxtani qayta ishlash jarayonida paxta xom-ashyosini nobudgarchilikka yo'l qo'ymaslik hamda uning tabiiy xususiyatlarini saqlash eng dolzarb muammo hisoblanib, asosiy maqsadga erishishda paxtani teng taqsimlovchi texnologiyani yaratish muhim hisoblanadi.

Paxta havotransporti qurilmasining samaradorligi separatorning ishlash ko'rsatkichlariga ko'p tomonlama bog'liq hisoblanadi.

Maqolada paxtani havodan ajratish jarayonida qo'llaniladigan separatorlarni takomillashtirish maqsadida o'tkazilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlarni tahlil etish va shu asosda texnologik jarayonni takomillashtirishga qaratilgan yo'nalishlarni aniqlab olishdir.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqot ob'ekti sifatida paxtani tabiiy ko'rsatkichlarini saqlagan holda, uni havo oqimidan ajratib olish va havo qurilmasining bosimini minimal yo'qotishlar bilan bir maromda ishlashini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan va e'lon qilingan ma'lumotlar xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda taxlillashtirish, umumlashtirish va tanqidiy baholash usullaridan foydalanildi.

Ma'lumotlarni taxliliy ko'rib chiqish


Ma'lumki separatorga qo'yiladigan asosiy talablar bu paxtani tabiiy ko'rsatkichlarini saqlagan holda, uni havo oqimidan ajratib olish va havo qurilmasining bosimini minimal yo'qotishlar bilan bir maromda ishlashini ta'minlashdir. Ayniqsa, paxta oqimini bir me'yorda vakuum-klapanga uzatishdir.

Ishlash davomida paxta va havo aralashmasi kirish trubasi orqali separatsion kameraga kiradi. Kamera hajmi katta bo'lganligi uchun undagi oqim tezligi keskin pasayadi. Paxtaning asosiy qismi inertsia kuchi bo'yicha harakatlanishni davom ettirib, orqa devorga o'tadi, uning yuzasidan sirpanib vakuum - klapaning parraklari yordamida chiqib ketadi, qolgan miqdordagi qismi to'rli yuzaga kelib uriladi. Paxta to'r yuzasidan elastik qirg'ichlar yordamida ajratilib, ular ham vakuum-klapanga tushiriladi. Vakuum - klapanga tushayotgan paxtaning harakat qonuniyati hamda vakuum-klapaning ishchi uzunligi bo'yicha paxtaning taqsimlanishi to'liq o'rganilmagan. Bundan tashqari separator ishchi qismlari bo'yicha paxtani harakati xam o'rganilmagan.

Afsuski, SS-15A separatorida kameraga kirayotgan paxtaning aksariyat miqdori ikki yon tomondagi havo surish yo'naltirgichlaridagi so'ruvchi kuch yordamida to'rli sirlarga yopishib, so'ngra qirg'ichlar yordamida sidirib olinadi. Albatta, bunday holatda paxtaning vakuum - klapan ishchi uzunligi bo'yicha teng taqsimlanishi haqida fikr yuritish noto'g'ridir. Bunday holat vakuum-klapaning rezinali parraklarini notekis eyilishiga olib kelmoqda. Paxta bo'lagi qirg'ich yordamida tozalanib, ular ham vakuum - klapanga tushiriladi.

Tozalash vaqtida paxta bo'lagi qirg'ich va to'rli yuza orasida siqilib qolish natijasida chigitning sinishi va paxta tolasining chigitdan ajralishi, ya'ni «yolg'on» jinlanishi kuzatiladi, bu esa erkin tolaning paydo bo'lib, yo'qotilishiga olib keladi. Shunday qilib, SS-15A separatorida paxtaning havo oqimidan ajratish texnologik jarayonida uning tabiiy xususiyatlarini yomonlashuvi va tola miqdorining yo'qotilishiga sabab bo'ladi.

Separator yordamida paxtani qayta ko'chirishda tola yo'qotilishlari yuqori navlarda o'rtacha 0,0285 % va past navlarda o'rtacha 0,052 % ni tashkil etadi. Keyingi qayta uzatishlarda yo'qotishlar taxminan bir xil miqdorga oshadi [1].




1-rasm. SS-15A separatorning umumiy ko'rinish sxemasi.

1-kamera; 2-to'rtli yuza; 3- paxta bilan havo kiradigan quvur; 4-kirish va chiqish quvuri; 5-elektroyuritma; 6-vakuum-klapan; 7-qirg'ichlar; 8-qirg'ich-tozalagich; 9-val; 10-rama;

Bugungi kunda olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, paxtaning sanoat navlari bo'yicha tolaning yo'qotilish sabablari aniq ko'rsatib berilgani yo'q. Havoyurilmasining maksimal ishlash jarayonida yoki yuqori namlikda paxtani ko'chirishda, ba'zan to'rtli yuzaga ma'lum miqdordagi paxta yopishib qolib, elastik qirg'ich to'rtli yuzani samarali tozalay olmaydi, natijada tiqilib qolish holati hosil bo'ladi. Tiqilib qolish qirg'ichning eyilib ketishi va egilib ishga yaramay qolishidan ham hosil bo'ladi. Bir qator izlanuvchilar SS-15A separatorining ajratish uskunasi o'zgartirib separatsiyalash texnologik jarayonining takomillashtirishni zamonaviy usullarini tavsiya etganlar.

Shuni aytish mumkinki, SS-15A separatori katta aerodinamik qarshilikka ega. Havoning sarfi 5-6 m³/s bo'lganda (bu ko'rsatkich paxta tozalash korxonasida havoyurilmasining normal ishlash sharoitiga mos keladi), bosim yo'qotilishi 1180-1370 Pa ni tashkil etadi.

Separatorida ko'p miqdorda bosimning yo'qotilishi, oqim qismi kesimining va havo harakati yo'nalishining o'zgarishi asosida ifodalanadi. Paxta tozalash korxonasida SS-15A separatorining havotransporti qurilmalari tizimiga ulanishi havo chiqarish moslamalari kollektor va keyinchalik havo quvuri bilan trubka orqali ulanadi. Bunda tajriba natijalari bo'yicha havoning sarfi 6,1 m³/s bo'lganda, separatorning aerodinamik qarshiligi 1610 Pa ni tashkil etadi. Shu sababli, ventilyator uzatayotgan bosimning ko'p qismi SS-15A separatorining qarshiligini engishga sarf bo'ladi, bu esa o'z navbatida havotransporti uskunasi ishlash radiusini kamaytiradi. Shuning uchun ham uzoq masofadagi g'aramlardan paxtani ishlab chiqarishga uzatishda havotransporti tizimiga qayta uzatish qurilmalari o'rnatiladi. Bu esa ortiqcha energiya sarfini oshishiga, natijada xarajatlarni ko'payishiga sabab bo'ladi.



3-rasm. Kichik tozalovchi kamerali separator


1-kirish quvuri; 2-ishchi kamera; 3-to'rli sirt; 4-sidirgich;
 5-havo chiqish quvuri; 6-qiya to'rli yuza; 7-qopqoq; 8-vakuum klapan

R.Murodov tomonidan takomillashtirilgan qo'shimcha havo kanalli spiralsimon tuzilishdagi separator bo'lib, u chiqarish trubasi bilan teshiklar shaklidagi gorizontall tekislikka nisbatan $20-25^\circ$ burchak ostida qiya o'rnatilgan kirish trubasi bilan ulangan [3]. U quyidagicha ishlaydi: paxta havo oqimi bilan patrubka orqali separatsion kameralga keladi va inertsia kuchi bilan patrubka devoriga qisiladi, shundan so'ng o'z og'irligiga va markazdan qochirma kuch ta'sirida devor hamda vakuum-klapan orqali kerakli joyga uzatiladi. Havo spiralsimon plastinka orqali so'rish patrubkasiga uzatilib, undan oqim tomon yo'naladi. Ayrim paxta bo'laklari qiyshik devorga urilib, vakuum-klapan tomon yo'naladi.

Havo separatorida paxtaning havo oqimidan etarli darajada samarali ajralishi amalga oshadi. Biroq to'la separatsiyaga erishilmay paxta bo'laklarining chiqindiga chiqib ketishi ham kuzatiladi.

SX rusumli separatorni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, paxtani havodan ajratish jarayonida tola yo'qotiladi, ya'ni yuqori navlar uchun $0,23 \text{ kgG'soatga}$, past navlar uchun $0,83 \text{ kgG'soat ga}$ kamayadi.

Tsilindrsimon to'rli yuza va ajratish barabani, ajratish kamerasidan belgilangan masofada (70-100 mm) o'rnatilgan.




4-rasm. Spiralsimon tuzilishdagi separatorning umumiy ko'rinishi.

1-devor; 2-kamera; 3- paxta bilan havo kiradigan quvur; 4-havo chiqadigan quvur; 5-spiralsimon plastinka; 6-qo'zg'almas devor; 7-vakuum - klapan.

Ajratish barabani qirg'ichlarining havodan ajratiluvchi paxta bilan yaxshi aloqada bo'lishi, ajratuvchi kamerada paxtaning yig'ilib qolishiga yo'l ko'ymaydi. SX rusumli separatorning ishlash printsipi pnevmatik separatorning ishlash printsipiga asoslangan [4].

Havo oqimi ajratuvchi kameraga kirgan paxtaning asosiy qismi qaytaruvchi devorga urilishi natijasida havo oqimidan ajralib, o'z inertsiasini bilan to'g'ridan-to'g'ri vakuum-klapanga tushadi. Paxtaning bir qismi ventilyator yordamida to'rt yuz orqali so'rilayotgan havo oqimi bilan birga harakatlanib tsilindrsimon to'rt yuzada turib qoladi va ajratuvchi barabanning qirg'ichlari bilan tozalanib, vakuum-klapanga tashlab yuboriladi.



5-rasm. SX separatorining umumiy ko'rinishi sxemasi.

1-ajratish kamerasi; 2-qaytaruvchi devor; 3-inertsion ajratish uchastkasi; 4- paxta bilan havo kiradigan muhit; 5-vakuum - klapan; 6-to'rt yuz; 7-qiruvchi va chiquvchi potruboklar; 8-qirg'ich; 9- ajratish vali.

SX rusumli separatorni qo'llash tufayli paxtaning tsilindrsimon to'rt yuzaga bevosita borib tushishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bu xolatda paxtaning chigallanishi va chigit shikastlanishining kamayishiga erishiladi. To'rt yuza tekisligi har doim toza turadi va bu bilan separatorning aerodinamik qarshiligi doimiy ta'minlanib turiladi.


Separatorning yana bir afzallik tomoni shundaki, unga energiya kam sarflanadi.

Shunday qilib, paxtani pnevmatik ko'chirishning texnika va texnologiyasi zamonaviy holatining tankidiy tahlili va adabiyotlarning mazmunini ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, bu xususdagi masalalar hali to'la echimini topmagan bo'lib, takomillashtirishni talab qiladi.

Xuddi SS-15A separatorida o'tkazilgani kabi SX separatorida ham paxta oqimini vakuum-klapan ishchi uzunligi bo'yicha teng taqsimlanish holati o'rganilgan.

Ushbu tajribani o'tkazishda ham Sulton seleksion navining I, II hamda III-sanoat navidan foydalanildi. Olingan natijalar grafik ko'rinishida 6-rasmda keltirilgan.

Olingan grafikdan ko'rinib turibdiki, haqiqatdan ham SX separatorida, paxta oqimining vakuum-klapan ishchi uzunligi bo'yicha taqsimlanishi notekis bo'lib, undagi holat SS-15A separatoriga nisbatan aksincha, ya'ni ikki yon tomonda paxta miqdorining kamayishi, o'rta qismida esa uni ko'payishi kuzatiladi. Har ikkala holatda ham vakuum-klapan ishchi uzunligi bo'yicha teng taqsimlanishi ro'y bermaydi. Bu esa, albatta, chigitni mexanik shikastlanishiga, erkin tolaning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.



6-rasm. Vakuum – klapan ishchi uzunligi bo'yicha paxta oqimining taqsimlanishi.

Hozirgi kunda SS-15A hamda SX separatorlari keng ko'lamda ishlatiladi. Ishlash davomida paxta va havo aralashmasi kirish trubasi orqali separatsion kameraga kiradi. Kamera hajmi katta bo'lganligi uchun undagi oqim tezligi keskin pasayadi. Paxta yoki tolani asosiy qismi inertsiya kuchi bo'yicha harakatlanishni davom ettirib, orqa devorga o'tadi, uning yuzasidan sirpanib vakuum-klapanni parraklari yordamida chiqib ketadi, qolgan miqdordagi qismi to'rtli yuzaga kelib uriladi. Paxta yoki tolani to'rtli yuzadan elastik qirg'ichlar yordamida ajratilib, ular ham vakuum-klapanga tushiriladi. To'rtli yuzadan o'tib ketayotgan chiqindilar bo'yicha izlanishlar to'liq olib borilmagan.

Izolyatsion tipdagi qirg'ich konstruksiyasi kirish hududidan oldin bo'shliq hududi hosil qiladi. Bo'shliq hududida havoni so'rish va uni bosim kuchi 0 ga teng bo'lib, paxtani to'rtli yuzaga bosuvchi kuch miqdori 0 ga teng bo'ladi [5].

Ushbu kuchning nolga teng bo'lishi tola bilan to'rtli yuza orasidagi F_2 ishkalanish kuchini kamaytiradi. Bu esa o'z holidan paxtani to'rtli yuzadan ajratish kuchi bo'lgan F_1 kuchini kamaytirishga olib keladi.

Separator quyidagicha ishlaydi: chigitli paxta kiruvchi patrubok orqali havo oqimi bilan birga ajratish kamerasiga kiradi. Asosiy paxta miqdori ajratish kamerasiga kirgan zahoti o'z tezligini kamaytirish hisobiga vakuum-klapanga yo'naltiriladi va vakuum - klapan yordamida separatoridan chiqarib yuboriladi.

Qolgan paxta miqdori esa havo oqimi bilan birgalikda to'rtli yuzaga qarab harakatlanadi va unga havo kuchi yordamida yopishib qoladi. Yopishgan paxtalarni izolyatsion tipdagi qirg'ich yordamida to'rtli yuzadan ajratib olinadi va u vakuum - klapanga uzatiladi. To'rtli yuzadan paxtani ajratish mobaynida avval yopishgan paxtaga ta'sir etayotgan havo kuchining ta'siri yo'qoladi.

Lekin ushbu konstruksiya o'zini nisbatan originalligiga qaramay bir qator kamchiliklarga ega. Asosiy kamchilik bari-bir paxta separator ishchi kamerasiga kirgandan so'ng to'rtli yuzaga to'qnash kelishi uchun yaratilishida. Bu albatta paxtani to'rtli yuzaga urilishi jarayonida, zarba natijasida tola zarrachalari albatta to'rtli yuza teshiklaridan o'tib, unga mahkam o'rnatilgan olinishida.

Albatta, to'rtli yuza orqa qismida o'rnatilgan izolyatsion kamera o'rnatilgan tola zarrachalarini to'liq ajralib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

SS-15A separatorini takomillashtirish quyidagi yo'nalishda amalga oshirildi:


Separatorlarni kirish qismida paxta qatlami uning to'g'ri orqa devoriga katta tezlikda borib urilmasligi va vakuum-klapanning ishchi uzunliklari bo'yicha teng taqsimlanib, vakuum-klapanga tushayotgan paxtani tabiiy xususiyatlarini saqlash asosiy maqsad qilib olindi. Hozirgi holatda paxta massasini separator orqa devoriga kuch bilan urilishiga sabab bo'lib, buni natijasida chigitni mexanik oshishi ro'y beradi. Bu esa chigitlarning mexanik shikastlanishiga, separator orqa devorini tez eyilishiga va separatorning ishlash davomiyligini kamayishiga olib keladigan kamchiliklardan hisoblanadi.

Tavsiya etilgan takomillashtirilgan separatorning maqsadi -paxtaning tabiiy xususiyatlarini saqlash va uning ishlash muddatini sezilarli darajada uzaytirish uchun separator konstruksiyasiga yangi yo'naltirgich moslamasini qo'llashni taqozo qiladi. Separatorida havo ajratuvchi kameraning ichkarisidagi kirish qismiga o'rnatilgan qurilma bilan to'ldirish orqali uskunaning mustahkamligini ta'minlash uchun metall listdan yasalgan yo'naltirgich o'rnatilgan.

Ushbu qurilmaning mohiyati shundan iboratki, separatorning ajratish kamerasi ichiga o'rnatilgan yo'naltirgich bilan jihozlangan bo'lib, bu uzatib berilayotgan paxta xomashyosi yo'nalishini o'zgartirishga imkon beradi. Paxta xomashyosi ajratish kamerasiga kirish hududiga quvur orqali uzatilganda, o'rnatilgan yo'naltirgich bizga paxta xomashyosi yo'nalishini separatorning orqa devoriga emas, balki paxta xomashyosining kuchaygan o'rash hududiga, ya'ni to'rli yuzaning markaziy qismiga, ya'ni vakuum-klapanga o'zgartirishga imkon beradi.

Paxta separatori separatsion kameraga ega bo'lib, uning ishchi qismida qirg'ichlarga ega bo'lgan to'rli yuza joylashgan, kameraning pastki qismida rezinali vakuum-klapan joylashgan. Separator kamerasining kirishida yo'naltirgich o'rnatilgan. Bunda yo'naltirgich qalinligi δ q 2 mm keladigan metall listdan tayyorlangan hamda o'z o'qi atrofida tebranadigan qilib o'rnatilgan. Undan tashqari, yo'naltirgichning kirib kelayotgan paxta harakatlanishining markaziga nisbatan aylanish burchagi α q $25^\circ \div 35^\circ$ ni tashkil qiladi [6].

7-rasmda Takomillashtirilgan yo'naltirgichli separatorning ko'ndalang qirqimi ko'rsatilgan.



7-rasm. Separatorning ko'ndalang qirqim ko'rinishi.

Separator quyidagicha ishlaydi: paxta kiruvchi patrubok orqali havo oqimi bilan birga ajratish kamerasiga kiradi. Asosiy paxta miqdori ajratish kamerasiga kirganda yo'naltirgich orqali o'z tezligini kamaytirgan holda qirg'ichga yo'naltiradi va vakuum-klapan yordamida separatoridan chiqarib yuboriladi. Qolgan paxta miqdori 30-40% i esa havo oqimi bilan birgalikda to'rli yuzaga qarab harakatlanadi. Ushbu holatda patrubkadan so'ng o'rnatiladigan og'ish burchagi 25° gradusli yo'naltirgich orqali asosiy paxta massasini vakuum-klapanga yo'naltiriladi, natijada uni tezligi 30-35 % ga kamayishi natijasida chigitni mexanik shikastlanishi kamayadi, to'g'ri devorning edirilishini oldi olinadi va vakuum-klapan bo'yicha paxtani taqsimlanishi yaxshilanadi. Kirish quvuridan kirayotgan paxta oqimi yo'naltirgichga kelib uriladi. Zarba qattiq bo'lmasligi uchun yo'naltirgich oqim bo'yicha yoysimon shaklda tayyorlangan bo'lib, paxta oqimini separatorning orqa devoriga to'g'ridan-to'g'ri urilishini oldi olinadi.

Ushbu takomillashtirilgan separatora ham yo'naltiruvchi konstruktsiya metall materialdan tayyorlangan. Natijada, havo oqimi orqali yuqori tezlikda harakatlanayotgan paxta xom ashyosi mazkur qurilma elementlariga urilishi oqibatida uning tabiiy xususiyatlari (chigitning mexanik shikastlanishi) qisman buzilmoqda. Bu esa paxtani keyingi qayta ishlash bosqichlarida mahsulot sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu munosabat bilan, hozirgi kunda paxtaning tabiiy xususiyatlarini maksimal darajada saqlab qolishni ta'minlaydigan, zarba ta'sirini kamaytiruvchi hamda konstruktiv jihatdan takomillashtirilgan separator uskunalari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-texnik masalalardan biri hisoblanadi.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,**
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2

Xulosa. Paxtani havodan ajratish jarayonida qo'llaniladigan separatorlarni takomillashtirish maqsadida o'tkazilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlarning tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, paxtaning tabiiy xususiyatlariga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri bu tarmoqda o'rnatilgan separatorlar va uning texnologik jarayoni ekanligi aniqlandi.

2. Separatorlarni takomillashtirish bosqichida to'rtli yuza bilan paxta orasida bog'lanish maksimal ravishda saqlanib kelayotganligi uning tabiiy xususiyatlarini salbiy tomonga oshishiga olib kelmoqda.

3. Paxtani havo oqimidan ajratib olish jarayonida paxta oqimini to'planib qolishi asosida tolani uzilishi hamda chigitni mexanik shikastlanishi ro'y bermoqda. Ushbu jarayonni nazariy hamda amaliy tomondan o'rganish zarurati dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navruzov N. A., Eshmurodov D. D., Yakubov K. N., & Abdumajidov A. INFLUENCE OF COTTON STRUCTURE ON GIN PERFORMANCE. Universum: Technical science, 2022.(7-2 (100))-P. 35-38.
2. Khodjiev M. T., Eshmurodov D. D., and Ortiqova D. A. "Study on the development of improved routing technology of CC-15A cotton separator." IOP Conference Series: Earth and Environmental Science , 2021.Vol. 939. No. 1. IOP Publishing.
3. Eshmurodov D.D., Abbasov I.Z., Xaitbayev X.X. Researches to improve the CC-15A separator // Materials of the XV international scientific and practical conference. "Conduct of modern science" November 30 – December 7, 2019. Volume 13. England-2019. - P.94-96.
4. Патент UZ № FAP 01396. Чититли пхтх сепаратори / Хожиев М.Т., Усманов Х.С., Тангиров А.Э., Останакулов М.А., Усманов З.С., Эшмуродов Д.Д. // Расмий ахборотнома. – 2019. № 7. 122-123- б.
5. Xodjiev M.T., Murodov O.Dj., Eshmurodov D.D., Eshnazarov D.A. (2020). Tests in isolation chambers of an improved separator./ In the IOP Conference Series: Materials Science and Engineering/ 2020.volume 862, № 3, p. 032025. Publishing house IOP.
6. Khaitboev X., Khodjiev M.T., Eshmurodov D.D. Theory analysis of cotton on the separation by air convey // Техника ва технологияларни модернизациялаш шароитида иктидорли ёшларнинг инновацион фойлари ва ишланмалари. -Илмий – амалий анжуман I-қисм. 12-13 декабр. Тошкент 2017.- 60-62 б.

Mualliflar:

Xodjiyev Muksin Tadjievich - Guliston davlat universiteti rektori, t.f.d., professor. E-mail: m.xojiyev@titli.uz.

Eshmurodov Dilmurod Dushmanovich o'g'li - Guliston davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, t.f.f.d., dotsent. E-mail: eshmurodovdilmurod1993@gmail.com

Kuziyev Bekzod Nasriddinovich – Guliston davlat universiteti Axborot texnologiyalari va fizika-matematika fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari, t.f.f.d., E-mail: bekzod89kuziyev@gmail.com,

Toshqulov Iskandar Isroil o'g'li - Guliston davlat universiteti, Ishlab chiqarish texnologiyalari fakulteti tyutori.

UDK 631.313.1

EFFECT OF ROLLER WEDGE-SECTION HEIGHT ON THE PERFORMANCE OF A WEDGE-SHAPED ROLLER-LEVELER

PONASIMON G'ALTAKMOLALI MOLA-TEKISLAGICH G'ALTAKMOLA PONASIMON QISMINING
BALANDLIGINI MOLA-TEKISLAGICHNING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ ВЫСОТЫ КЛИНОВИДНОЙ ЧАСТИ КАТКА НА РАБОЧИЕ ПОКАЗАТЕЛИ
КЛИНОВИДНОГО КАТКОВО-ВЫРАВНИВАТЕЛЯ

Xudayberdiyev Ikram Akramovich

Guliston davlat universiteti.120100.Sirdaryo viloyati, Guliston shahar,

e-mail: ikram.hudoyberdiyev@gmail.com

Abstract. The article analyzes the issues of ensuring the required operating quality of the developed wedge-shaped roller-leveler with minimal energy consumption. Based on the obtained results, it was determined that the height of the wedge-shaped section of the roller should be 50 mm to achieve low energy

consumption. During the experiments, the height of the wedge roller's wedge-shaped section was varied in the range from 30 mm to 60 mm with a 10 mm increment.

Keywords. Wedge-shaped roller-leveler, height of the wedge-shaped section of the wedge roller, soil crumbling degree, soil density, specific draft resistance of the leveler, operating speed.

Annotatsiya. Maqolada ishlab chiqilgan ponasimon g'altakmolali mola-tekislagichning talablar darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Olingan natijalar kam energiya sarflash uchun g'altakmolasi ponasimon qismining balandligi 50 mm bo'lishi lozimligi aniqlandi. Tajribalarda ponasimon g'altakmolali mola-tekislagich g'altakmolasi ponasimon qismining balandligi 30 mm dan 60 mm gacha bo'lgan oraliqda 10 mm farq bilan o'zgartirildi.

Tayanch so'zlar. Ponasimon g'altakmolali mola-tekislagich, ponasimon g'altakmola ponasimon qismining balandligi, tuproqning uvalanish darajasi, tuproqning zichligi, mola-tekislagichning tortishga solishtirma qarshiligi, harakat tezligi.

Аннотация. В статье проанализированы вопросы обеспечения требуемого качества работы разработанного клиновидного катково-выравнивателя при минимальных энергозатратах. На основе полученных результатов установлено, что для снижения энергоемкости процесса высота клиновидной части катка должна составлять 50 мм. В ходе экспериментов высота клиновидной части катка клиновидного катково-выравнивателя изменялась в диапазоне от 30 мм до 60 мм с интервалом в 10 мм.

Ключевые слова. Клиновидный катково-выравнивающий мола -выравниватель, высота клиновидной части клиновидного катка, степень крошения почвы, плотность почвы, удельное тяговое сопротивление выравнивателя, скорость движения.

Kirish. Mavjud g'altakmolali mola-tekislagichlarda tuproqni zichlash uchun tekis silindrik sirtli g'altakmolalar qo'llanilgan [1,2]. Ammo ular tuproqni pastki qatlamlarini yetarli darajada zichlamaydi [3-7]. Bundan tashqari tuproqni talablar darajasida zichlash uchun tekis silindrik sirtli g'altakmolalarga katta tik yuklanish berilishi talab etiladi va bu ularning metall-energiyahajmdorligini ortishiga olib keladi. Ushbu ta'kidlanganlardan kelib chiqib, biz tomonimizdan g'altakmolasi ponasimon ishchi sirtga ega bo'lgan mola-tekislagich ishlab chiqildi. U osish qurilmasi bilan jihozlangan rama 1 va uning old qismiga o'rnatilgan tekislagich 2 va orqa qismiga o'rnatilgan ishchi sirti ponasimon ko'rinishdagi g'altakmola (keyingi o'rinlarda ponasimon g'altakmola) 3 dan tashkil topgan (1-rasm).


Ish jarayonida ishlab chiqilgan g'altakmolali mola-tekislagichning tekislagichi dala yuzasidagi notekisliklarni tekislaydi, ponasimon g'altakmolasi esa ushbu tekislangan yuza tuproqini talablar darajasida zichlaydi va kesaklarni maydalaydi. Bunda g'altakmolaning ponasimon qismi tuproqqa chuqur botib, uning pastki qismini samarali zichlaydi. Bundan tashqari ponasimon g'altakmolani tuproqqa botirish uchun kam tik yuklanish talab etiladi hamda u qattiq kesaklarni ponasimon qismi bilan talablar darajasida maydalaydi.

Ushbu maqolada ishlab chiqilgan mola-tekislagich g'altakmolasi ponasimon qismining balandligini uning ish ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tajribaviy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Tadqiqot obyekti va usullari

Tadqiqot obyekti bo'lib, ponasimon g'altakmolali mola-tekislagichning texnologik ish jarayoni va uning ponasimon qismining balandligi o'zgaruvchan bo'lgan (30 mm dan 60 mm gacha) ponasimon ishchi sirtli g'altakmolasi xizmat qildi. Tajribaviy tadqiqotlar O'z DSt 3193:2017 va O'z DSt 3412:2019 me'yoriy hujjatlari asosida o'tkazildi. Bunda baholash mezonini sifatida tuproqning uvalanish sifati, zichligi hamda mola-tekislagichning tortishga solishtirma qarshiligi qabul qilindi.

Tajribalarda ponasimon g'altakmolali mola-tekislagich g'altakmolasi ponasimon qismining balandligi 30 mm dan 60 mm gacha bo'lgan oraliqda 10 mm farq bilan o'zgartirildi. Bunda g'altakmolaning diametri 350 mm, o'tkirlanish burchagi 80° hamda g'altakmolaga ta'sir etuvchi solishtirma tik yuklanish 2,14 kN/m qiymatida doimiy deb qabul qilindi. Tajribalar davomida agregatning harakat tezligi 6 va 9 km/h ni tashkil etdi.




1- rama, 2- tekislagich, 3- ponasimon g'altakmola


1-rasm. Takomillashtirilgan g'altakmolali mola-tekislagichning konstruktiv sxemasi

Natijalar va ularning tahlili


O'tkazilgan tajribalar natijalari 2-rasmدا keltirilgan.



a)



b)



v)

1 – 6,0 km/h harakat tezligida; 2 – 8,0 km/h harakat tezligida

2-rasm. Tuproqning uvalanish darajasi (a) va zichligi (b) hamda takomillashtirilgan g'altakmolali mola-tekislagichning tortishga solishtirma qarshiligi (v) ni u g'altakmolasi ponasimon qismining balandligiga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,**
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2

Ularining tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikkala harakat tezligida ham ponasimon g'altakmolali mola-tekislagich g'altakmolasi ponasimon qismining balandligi 30 mm dan 60 mm gacha ortishi bilan tuproqning uvalanish darajasi va zichligi hamda tortishga qarshiligi deyarli to'g'ri chiziqli qonuni bo'yicha o'sgan.

Xususan, agregatning harakat tezligi 6 km/h bo'lganda g'altakmolali ponasimon qismining balandligi 30 mm dan 60 mm gacha oshirilganda o'lchami 25 mm dan kichik bo'lgan tuproq fraksiyalarining ulushi 84,9 % dan 88,7 % gacha, tuproqning zichligi 1,11 g/cm³ dan 1,26 g/cm³ gacha, tortishga solishtirma qarshilik esa 2,56 kN/m dan 2,75 kN/m gacha ortgan. Agregatning harakat tezligi 9 km/h bo'lgan holatda mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 86,1 % dan 89,1 % gacha, 1,06 g/cm³ dan 1,24 g/cm³ gacha, tortishga qarshilik esa 2,62 kN/m dan 2,82 kN/m gacha ortgani qayd etilgan.

Kuzatilgan holat asosan ponasimon g'altakmolali mola-tekislagich g'altakmolasi ponasimon qismi balandligining ortishi uni tuproqqa botish chuqurligining ortishiga olib kelishi bilan izohlanadi. Bu esa tuproqning uvalanish va zichlanish darajalari hamda tortishga qarshilikning oshishiga olib keladi.

Agregat harakat tezligining 6,0 km/h dan 9,0 km/h ga oshirilishi tuproq zichligining kamayishiga, shu bilan birga tuproqning uvalanish sifati hamda tortishga solishtirma qarshilikning ortishiga sabab bo'lgan. Shu tariqa, o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari tuproqning talab darajasida uvalanishi va maqbul zichlanishini ta'minlash uchun ponasimon g'altakmolali mola-tekislagich g'altakmolasi ponasimon qismining balandligi 50 mm atrofida bo'lishi maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatdi.

Xulosa. O'tkazilgan tajribaviy tadqiqotlarning natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan ponasimon mola-tekislagich talablar darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlashi uchun uning ponasimon qismining balandligi 50 mm bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Foydali model patenti Uz. FAP №2549. Mola-tekislagich // Xudayberdiyev I.A., Qurbonov E., Boboyev U., To'xtaqoziev A.- Rasmiy axborotnoma. – 2024. – № 8.-7 b.
2. Akbarov I.A. G'altakmolali mola-tekislagichning parametrlarini asoslash /Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya – Andijon, 2021 – B.173-175.
3. Ergashev M.M., Eshmatova G.Q. Kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo'llaniladigan g'altakmolalarning tahlili// Farg'ona politexnika institutining ilmiy-texnik jurnali. – Farg'ona, 2022. – №2. – B.184-188.
4. Тройнич Н.Г. Обоснование геометрических и кинематических параметров гладких катков для луговых агрегатов // Научные труды. Львов. СХИ. – Львов, 1981. – Т. 96. – С. 16-24.
5. Золотаревский Д.И. Уплотнение вязкоупругой почвы цилиндрическим катком // Тракторы и сельхозмашины. – 2005. – № 10. – С. 31-35.

Muallif:

Xudayberdiyev Ikram Akramovich - Guliston davlat universiteti, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, mustaqil tadqiqotchi.

UDK 676.038:674.028

APPLICATION OF BASALT FIBERS IN PAPER PRODUCTION

QOG'OZ ISHLAB CHIQRISHDA BAZALT TOLALARIDAN FOYDALANISH

ПРИМЕНЕНИЕ БАЗАЛЬТОВОГО ВОЛОКНА ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА БУМАГИ

**Babaxanova Xalima Abishevna, Ataxanova Nodira Habibullo qizi, Tursunboyeva Nozima
Habibullo qizi, Sadriddinova Nigora Jumadulla qizi**

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, 100100. Toshkent shahar, Shoxjahon ko'chasi – 5 uy

Email: a.nodira194@gmail.com

Abstract. This paper investigates the effect of basalt fibers, filler (kaolin), and alkyl ketene dimer (AKD) on the physical and mechanical properties of paper, aiming to substantiate their application in the paper industry. The study was conducted using compositions based on waste paper of type A with the addition of

basalt fibers (0–20%), kaolin (2–4%), and AKD (1–2%). The results showed that increasing the content of basalt fibers leads to a decrease in the mechanical strength of paper: by approximately 4% at 10% fiber content and up to 26% at 20%, with the effect becoming more pronounced at higher kaolin contents. It was also found that at 2% kaolin, the influence of AKD on strength properties is insignificant, whereas at 4% kaolin, its effect becomes considerable, causing an additional reduction in strength (up to ~30%). An optimal composition of paper pulp was determined, consisting of 10% basalt fibers, 2% kaolin, and 1–1.5% AKD, which ensures the preservation of mechanical strength when using alternative raw materials. The obtained results confirm the effectiveness of basalt fibers in the paper industry and demonstrate the potential of the developed materials for use in digital and sheet-fed printing processes.

Keywords: paper pulp, basalt fibers, waste paper, kaolin, alkyl ketene dimer, mechanical strength, composite materials, moisture.

Annotatsiya. Ushbu maqolada qog'oz sanoatida qo'llash imkoniyatlarini asoslash maqsadida bazalt tolalari, to'ldiruvchi modda (kaolin) va alkilketendimer (AKD) ning qog'ozning fizik-mexanik xossalariga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot obyekti sifatida A turdagi makulatura asosidagi kompozitsiyalar tanlangan bo'lib, ularga bazalt tolalari (0–20 %), kaolin (2–4 %) va AKD (1–2 %) qo'shilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bazalt tolalari miqdorining ortishi qog'ozning mexanik mustahkamligini kamaytiradi: 10 % da taxminan 4 % ga, 20 % da esa taxminan 26 % ga pasayadi, bunda kaolin miqdori ortishi bilan bu ta'sir yanada kuchayadi. Shuningdek, 2 % kaolin mavjud bo'lganda AKD ning mustahkamlikka ta'siri sezilarli emasligi, ammo 4 % kaolin holatida uning ta'siri kuchayib, qo'shimcha ravishda mustahkamlikni pasaytirishi (~30 % gacha) aniqlangan. Tadqiqotlar asosida qog'oz massasining optimal tarkibi sifatida 10 % bazalt tolalari, 2 % kaolin va 1–1,5 % AKD dan iborat kompozitsiya tavsiya etildi, bu esa alternativ xomashyodan foydalanishda mexanik mustahkamlikni saqlash imkonini beradi. Olingan natijalar bazalt tolalarining qog'oz sanoatida qo'llash samaradorligini tasdiqlaydi hamda ishlab chiqilgan materiallarni raqamli va listli bosma texnologiyalarida qo'llash imkonini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: qog'oz massasi, bazalt tolalari, makulatura, kaolin, alkilketendimer, mexanik mustahkamlik, kompozitsion materiallar, namlik.

Аннотация. В статье исследовано влияние базальтовых волокон, наполнителя (каолина) и алкилкетендиомера (АКД) на физико-механические свойства бумаги с целью обоснования их применения в бумажной промышленности. В качестве объектов исследования использовались композиции на основе макулатуры типа А с добавлением базальтовых волокон (0–20 %), каолина (2–4 %) и АКД (1–2 %). Установлено, что увеличение содержания базальтовых волокон приводит к снижению механической прочности бумаги: при 10 % — до ~4 %, при 20 % — до ~26 %, при этом эффект усиливается с увеличением содержания каолина. Показано, что при 2 % каолина влияние АКД на прочностные характеристики незначительно, тогда как при 4 % его воздействие становится существенным и приводит к дополнительному снижению прочности (до ~30 %). Определён оптимальный состав бумажной массы, включающий 10 % базальтовых волокон, 2 % каолина и 1–1,5 % АКД, обеспечивающий сохранение механической прочности при использовании альтернативного сырья. Полученные результаты подтверждают эффективность применения базальтовых волокон в бумажной промышленности и возможность использования разработанных материалов в процессах печати на цифровых и листовых печатных машинах.

Ключевые слова: бумажная масса, базальтовые волокна, макулатура, каолин, алкилкетендиомер, механическая прочность, композиционные материалы, влажность.

Введение. Бурное развитие промышленности способствует росту потребления бумажной продукции, что делает особенно актуальным решение сырьевой проблемы целлюлозно-бумажной отрасли. Свойства бумаги на основе вторичного сырья - макулатуры, в условиях дефицита первичного древесного сырья, требуют целенаправленного регулирования состава композиции, что стимулирует поиск альтернативных видов сырья [1-4]. В этой связи перспективным является использование минеральных волокон, имеющихся в большом количестве, которые могут служить как структурным, так и функциональным компонентом бумажной массы, позволяя улучшать её механические и сорбционные свойства [5-9].

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,**
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2

Одним из наиболее доступных и технологически привлекательных видов минеральных волокон являются базальтовые волокна, которые широко используются во многих отраслях промышленности, включая строительную, авиационную, автомобильную и бумажную [10-14]. Введение базальтовых волокон в бумажную массу позволяет повышать прочность материала, улучшать однородность структуры и контролировать пористость, что напрямую влияет на водопоглощение и адгезионные свойства [15-18]. Помимо этого, применение базальтовых волокон способствует решению сырьевой и экологической проблем за счёт частичной замены дефицитного древесного сырья и использования минерального вторичного ресурса.

Целью настоящего исследования является комплексное изучение влияния базальтовых волокон на физико-механические свойства бумаги с целью обоснования их применения в качестве альтернативного сырья для бумажной промышленности и получения бумаги с заданными свойствами для технологий печати.

Материалы и методы

В настоящем исследовании использовались следующие сырьевые компоненты: макулатура типа А, базальтовое волокно в концентрациях 0%, 10% и 20%, алкилкетендиомер (АКД) в количествах 1%, 1,5% и 2%, а также наполнитель — каолин в концентрациях 2%, 4% и 6%. Сочетание этих компонентов позволило сформировать различные составы бумажной массы для последующего изучения их влияния на структурные, физико-механические и сорбционные свойства материала. Основные свойства базальтовой волокно представлены в табл.1.

Таблица № 1

Основные физико-механические характеристики базальтового волокна

Наименование показателей	Параметры
Длина отрезка волокна, мм	3
Диаметр волокна (мкм)	(9 - 22) ± 1,5
Тип покрытия	Силан (виниловый эфир, полиэстер, эпоксид-ная смола, полипропилен, полиуретан)
Совместимость со смолой	Эпоксидные, фенольные, полиэфирные, виниловые, акриловые
Массовая доля влаги, %	0,2
Массовая доля замасливателя, %	0,3
Плотность, г/см ³	2,6
Коэффициент удлинения, %	2 - 4,5
Модуль упругости, ГПа	Не более 80
Коэффициент теплопроводности Вт/мК	0,031 - 0,038
Температурная стойкость, t °C	от 250 до 850

Результаты и обсуждение

Бумажные отливки получали из базальтовых волокон без предварительного размола на листоотливном аппарате по следующей технологической схеме (рис.1).




Рис.1. Общая технологическая схема изготовления бумаги с добавлением базальтовых волокон

Свойства опытных образцов бумаги изучены согласно существующих стандартных методик, таких как ГОСТ Р ИСО 536-2013 для определения массы бумаги, ГОСТ 27015-86 для определения толщины, плотности бумаги, ГОСТ ИСО 1924-1-96 для изучения механической прочности. Результаты исследований приведены в табл. 2.

Таблица № 2

Физико-механические характеристики опытных образцов бумаги с различным содержанием базальтового волокна

Процентное соотношение макулатуры: базальтовое волокно	АКД, %	Каолин, %	Толщина, мкм	Разрывная длина, м	Количество дв. сгибов	Белизна %
100:0	1	2	191	2400	7	84,30
100:0	1,5	2	189	2400	5	84,56
100:0	2	2	190	2500	4	84,35
90:10	1	2	188	2300	4	76,30
90:10	1,5	2	189	2300	3	74,70
90:10	2	2	187	2500	2	74,72
80:20	1	2	189	2000	2	70,66
80:20	1,5	2	190	2000	3	69,81
80:20	2	2	188	2100	2	70,07
100:0	1	4	186	2700	5	83,23
100:0	1,5	4	189	2600	6	82,41
100:0	2	4	187	2500	6	73,54
90:10	1	4	186	2100	2	75,76

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2**

90:10	1,5	4	188	2000	3	75,44
90:10	2	4	189	1900	3	72,61
80:20	1	4	187	2000	3	70,51
80:20	1,5	4	188	1800	3	70,02
80:20	2	4	186	1600	2	82,24
100:0	1	6	184	2300	4	83,24
100:0	1,5	6	188	2200	5	84,39
100:0	2	6	186	1900	5	85,09
90:10	1,5	6	189	1800	3	75,86
90:10	2	6	185	1800	3	72,01
90:10	1	6	189	1900	1	68,27
80:20	1,5	6	187	1400	2	67,48
80:20	2	6	188	1300	2	65,74

На первом этапе исследования был проведён анализ влияния добавления базальтовых волокон в диапазоне от 0 до 20 % при введении 2 % каолина и различных концентрациях АКД (1 %, 1,5 % и 2 %). Результаты показали, что механическая прочность материала при добавлении 10 % базальтовых волокон снизилась с 2,4 км до 2,3 км (около 4 %), а при 20 % — с 2,4 км до 2,0 км (около 17 %) (рис.2, а). Изменение концентрации АКД в пределах 1–2 % не оказало заметного влияния на механическую прочность.




Рис.2. Зависимость разрывной длины (а) и числа двойных сгибов (б) от содержания базальтовых волокон

На втором этапе исследования был проведён анализ влияния добавления базальтовых волокон в диапазоне от 0 до 20 % при введении 4 % каолина и различных концентрациях АКД (1 %, 1,5 % и 2 %). Результаты показали, что механическая прочность материала при добавлении 10 % базальтовых волокон снизилась с 2,7 км до 2,1 км, что составляет снижение примерно на 22 %, а при 20 % — с 2,7 км до 2,0 км (снижение около 26 %). Изменение концентрации АКД в пределах 1–2 % оказало заметное влияние на прочность: при 2 % АКД прочность составила 1,9 км, что соответствует снижению примерно на 30 %.




Рис.3. Зависимость белизны (а) и влажности (б) от содержания базальтовых волокон

По рис.2 установлено, что с увеличением содержания базальтового волокна наблюдается снижение длины разрыва и числа двойных перегибов, что свидетельствует об ухудшении механических свойств бумаги. При этом также фиксируется уменьшение белизны и влажности образцов (рис.3). Полученные результаты объясняются отсутствием межволоконного взаимодействия между базальтовыми и целлюлозными волокнами, что приводит к ослаблению структуры бумажного полотна.

Таким образом, установлено, что увеличение содержания базальтовых волокон приводит к снижению механической прочности, причём данный эффект усиливается при повышении содержания наполнителя (каолина). При низком содержании каолина (2 %) влияние АКД на прочность незначительно, тогда как при 4 % каолина его воздействие становится более выраженным. Полученные результаты свидетельствуют о необходимости оптимизации совместного содержания базальтовых волокон, наполнителя и проклеивающего агента для обеспечения требуемых прочностных характеристик материала.

Выводы

Установлено, что увеличение содержания базальтовых волокон в бумажной массе до 20 % приводит к снижению механической прочности (до ~26 %), причём данный эффект усиливается при повышении содержания каолина до 4 %. Показано, что при содержании каолина 2 % влияние АКД (1–2 %) на прочностные характеристики незначительно, тогда как при 4 % каолина его воздействие становится существенным и приводит к дополнительному снижению прочности (до ~30 %).

Определено, что наиболее рациональным является ограничение содержания базальтовых волокон на уровне 10 %, при котором снижение прочности не превышает ~4 %. Таким образом, оптимальный состав бумажной массы включает макулатуру типа А, 10 % базальтовых волокон, 2 % каолина и 1–1,5 % АКД, что обеспечивает сохранение прочностных характеристик при одновременном использовании альтернативного сырья.

Данное исследование подтверждает эффективность применения базальтовых волокон в бумажной промышленности, поскольку полученные значения механической прочности являются достаточными для использования материала в процессах печати на цифровых и листовых печатных машинах.

Список литературы:

1. Kuleshov A.V., Smolin A.S. Vliyanie tsiklichnosti ispol'zovaniya makulturnogo volokna na bumagoobrazuyushchie svoystva // Lesnoy zhurnal. 2008. S. 2–4.
2. Howard R.C. The Effects of Recycling on Paper Quality // Pulp and Paper Science. 1990, September. Vol. 16, N 5. P. 143.

3. Chirikova S.L., Kornilova S.M., Sleptsova E.S. Pererabotka makulatury kak put' resheniya ekologicheskoy problemy // Yunyy uchenyy. 2024. № 2(76). S. 170–172. URL: <https://moluch.ru/young/archive/76/4081>
4. Mullina E.R., Mishurina O.A., Nigmatullina L.I., Ishkuvatova A.R. Vliyanie protsessa vtorichnoy pererabotki makulatury na bumagoobrazuyushchie svoystva tsellyuloznogo syr'ya // Mezhdunarodnyy zhurnal prikladnykh i fundamental'nykh issledovaniy. 2015. № 4-1. S. 32–34. URL: <https://applied-research.ru/ru/article/view?id=6578> (data obrashcheniya: 01.04.2026)
5. Dubovyy V.K. Steklyannye volokna. Svoystva i primeneniye. SPb: Nestor, 2003. 130 s.
6. Dubovyy V.K., Chizhov G.I. Sily svyazi v bumage iz rastitel'nykh i mineral'nykh volokon // IVUZ. Lesnoy zhurnal. 2005.
7. Dubovyy V.K., Fokina L.Yu., Ivanenko A.D., Bogdanov V.V. Svoystva listovykh kompozitsionnykh materialov na osnove steklyannykh volokon // IVUZ. Lesnoy zhurnal. 2008. №2. S. 96–100.
8. Dubovoy E.V., Koverninskiy I.N., Smolin A.S., Kanarskiy A.V. Adgezionnye svoystva steklyannogo volokna i povyshenie prochnosti bumagi dobavkoy merserizovannoy tsellyulozy // Vestnik tekhnologicheskogo universiteta. 2017. T. 20. №12. S. 53–56.
9. Egamberdiev E., Ergashev Yo., Khaydullayev Kh., Husanov D., Rahmonberdiev G. Obtaining paper samples using basalt fibers and studying the effect of natural glue obtained from chitosan on paper quality // Universum: tekhnicheskije nauki. 2022. №4-13(97).
10. Khodakova N.N., Zimin D.E., Tatarintseva O.S. Issledovanie vozmozhnosti polucheniya nepreryvnykh volokon iz sinteticheskikh bazaltovykh stekol // Polzunovskiy vestnik. 2010. №4-1. S. 251–256.
11. Kamolov B.S., Kurbanov A.A., Sattarov L.Kh., Rashidova R.K. Osobennosti filtratsii bazaltovym filtrom promyshlennykh gazov ot pyli // Innovatsion tekhnologiyalar. 2023. Vol. 49, №1. ISSN 2181-4732.
12. Sattarov L.Kh., Kurbanov A.A., Rakhmonov Zh.Kh. Protsessy filtratsii promyshlennykh gazov ot pyli cherez bazaltovye fil'try // Vestnik Tul'skogo gosudarstvennogo universiteta. Avtomatizatsiya: problemy, idei, resheniya. 2015. APIR-20. S. 205–210.
13. Hubbe M.A., Gill R.A. Fillers for papermaking: A review of their properties, usage practices, and their mechanistic role // BioResources. 2016. Vol. 11(1). P. 2886–2963.
14. Turabdjanyov S., Egamberdiev E., Iskandarov A., Zokirova Z. Installation of new types of basalt fiber filters in industry // SCHOLAR. 2023. Vol. 1(10). P. 106–110. URL: <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/3109>
15. Bulycheva V.N., Lavrentyev I.V. Issledovanie kompozitsiy steklyannogo i bazaltovogo volokna dlya bumagopodobnykh fil'tratsionnykh materialov s povyshennoy effektivnost'yu ochistki // Materialy V Mezhdunarodnoy nauchno-tekhnicheskoy konferentsii molodykh uchenykh i spetsialistov TsBP. SPb. 13–14 noyabrya 2023. S. 42–48.
16. Afshar R., Shaabani A. Mechanical properties of paper reinforced with mineral fibers // Cellulose Chemistry and Technology. 2018. Vol. 52(3–4). P. 255–262.
17. Babakhanova Kh.A., Atakhanova N.Kh., Sadriddinova N.Zh., Ravshanzoda D.Ch. Ispol'zovanie otkhodov bazaltovykh volokon v bumazhnoy otrasli // Izvestiya VUZov. Tekhnologiya tekstil'noy promyshlennosti. 2026. №1(416). S. 175–180.
18. Babakhanova Kh.A., Sadriddinova N.Zh., Atakhanova N.Kh., Tursunboeva N.Kh. Mikroskopicheskiy analiz kachestva tismeniy na bumage s dobavleniem bazaltovykh volokon // 1-Mezhdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferentsiya TTU. Dushanbe. 5 marta 2026.

Авторы:

Бабаханова Х. А. – Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности, Доктор технических наук, профессор. E-mail: halima300@inbox.ru

Атаханова Н. Х. – Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности, Докторант. E-mail: a.nodira194@gmail.com

Турсунбоева Н. Х. – Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности, Докторант. E-mail: tursunboyevanozima.98@gmail.com

Садриддинова Н.Ж. – Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности, Докторант. E-mail: nigorakukanova@gmail.com

Qishloq xo'jaligi

UDK 631.5:631.8:633.37

INFLUENCE OF DIFFERENT CULTIVATION TECHNOLOGIES ON THE DURATION OF PHENOLOGICAL DEVELOPMENT STAGES OF CHICKPEA UNDER RAINFED AGRICULTURAL

LALMIKOR MAYDONLARDA TURLI EKISH TEXNOLOGIYALARINING NO'XAT O'SIMLIGI RIVOJLANISH FAZALARI DAVOMIYLIGIGA TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ВОЗДЕЛЫВАНИЯ НА ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТЬ ФЕНОЛОГИЧЕСКИХ ФАЗ РАЗВИТИЯ НУТА В УСЛОВИЯХ БОГАРНОГО ЗЕМЛЕДЕЛИЯ

Musurmanov Alisher Amirqulovich Khayitalieva Madina Khudoyarovna

Muratkasimov Alisher Sattarovich

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shaxri, IV mavze

E-mail: musurmanov1975@mail.ru

Abstract. This article investigates the effect of different sowing technologies and fertilization methods on the duration of growth stages of chickpea under rainfed conditions. The study compares traditional and mulching technologies. The results show that mulching and combined fertilization accelerate plant development stages and reduce the vegetation period.

Keywords: rainfed agriculture, chickpea, mulching, agrotechnology, fertilization, phenological stages, development.

Annotatsiya. Mazkur maqolada lalmikor maydonlarda turli ekish texnologiyalari va o'g'itlash me'yorlarining no'xat o'simligining o'suv va rivojlanish fazalariga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotlarda an'anaviy va mulchalash texnologiyalari sharoitida o'simlikning unib chiqish, shoxlanish, gullash, dukkaklash va pishish bosqichlarining muddatlari tahlil qilingan. Olingan natijalarga ko'ra, mulchalash texnologiyasi va kompleks o'g'itlash variantlari no'xatning rivojlanish fazalarini tezlashtirib, vegetatsiya davrini qisqartirishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: lalmikor maydonlar, no'xat, mulchalash, agrotexnologiya, o'g'itlash, fenologik bosqichlar, rivojlanish, vegetatsiya.

Аннотация. В статье изучено влияние различных технологий посева и вариантов удобрения на продолжительность фаз развития нута в богарных условиях. Исследования проводились в условиях традиционной и мульчирующей технологий. Установлено, что применение мульчирования и комплексных удобрений способствует ускорению фаз развития растений и сокращению вегетационного периода.

Ключевые слова: богарные земли, нут, мульчирование, агротехнология, удобрения, фенологические фазы, развитие.

Kirish. Hozirgi kunda jahon qishloq xo'jaligida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, tuproq resurslaridan samarali foydalanish va iqlim o'zgarishi sharoitida barqaror hosildorlikka erishish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarda joylashgan lalmikor maydonlarda qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda agrotexnologik yondashuvlarni takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligi yerlarining katta qismi lalmikor maydonlardan iborat bo'lib, ushbu hududlarda asosiy cheklovchi omil tuproq namligining yetishmasligi hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi natijasida yog'ingarchilik miqdorining kamayishi, uning notekis taqsimlanishi va havo haroratining ortishi kabi omillar o'simliklar rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa, ayniqsa, dukkakli ekinlar, jumladan no'xat yetishtirish samaradorligini pasaytirish xavfini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot ob'ekti va usullari. Tadqiqot ob'ekti sifatida No'xat (*Cicer arietinum* L.) o'simligi olindi. Dala va laboratoriya sharoitlarda tajribalarda kuzatish, hisoblash va tahlillar Butunittifoq O'simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti (Leningrad 1980) Roda CICER L. (Nut) klassifikatori bo'yicha, tajribalarni joylashtirish "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (O'zPITI, 2007) va Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tavsiya etilgan (2004) uslubiy ko'rsatmalari asosida bajarildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. No'xat (*Cicer arietinum* L.) dunyoda eng muhim dukkakli oziq-ovqat ekinlaridan biri bo'lib, ayniqsa qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarda barqaror hosil berishi bilan ajralib turadi. No'xatning qurg'oqchilikka chidamliligi ko'p jihatdan uning kuchli ildiz tizimi bilan bog'liq. Tadqiqotlarda ildiz uzunligi zichligi, ildiz biomassasi va chuqur qatlamlarga kirib borish xususiyati o'simlikning tuproqdagi namlikdan samarali foydalanishini ta'minlashi hamda qurg'oqchilik sharoitida hosildorlikni oshirishi aniqlangan [1].

International Crops Research Institute for the Semi-Arid Tropics olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda no'xatning ildiz morfologiyasi qurg'oqchilikka moslashishning asosiy omillaridan biri ekanligi ko'rsatilgan. Xususan, ildiz uzunligi zichligi va maksimal ildiz chuqurligi yuqori bo'lgan genotiplar nam tanqisligi sharoitida yuqori hosildorlikni saqlab qolgan. Mualliflar markerlarga asoslangan seleksiya usullaridan foydalanish orqali qurg'oqchilikka chidamli navlarni yaratish imkoniyatlari mavjudligini ta'kidlaydilar [2].

Dala tajribalarida qurg'oqchilik sharoitida no'xat genotiplarining ildiz tizimi rivojlanishini baholagan. Natijalarga ko'ra, 45 kundan keyingi ildiz uzunligi zichligi, chuqur qatlamlardagi ildiz quruq massasi hamda ildiz va poya massasining nisbati hosildorlik bilan kuchli ijobiy bog'liqlikka ega ekanligi aniqlangan. Ushbu ko'rsatkichlar seleksiyada muhim mezon sifatida tavsiya etilgan [3].

No'xatning qurg'oqchilikka chidamliligini oshirishda ildiz tizimining fiziologik va molekulyar xususiyatlari ham muhim hisoblanadi. Kumar va hammualliflari zamonaviy "root-omics" yondashuvlari yordamida ildiz arxitekturasi, oziqa elementlari o'zlashtirilishi va suvdan foydalanish samaradorligini boshqaruvchi genlar aniqlanayotganini qayd etganlar. Ushbu yondashuvlar kelajakda iqlim o'zgarishi sharoitiga mos navlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi [4].

So'nggi yillarda chop etilgan sharh maqolalarda no'xatning iqlim o'zgarishi sharoitidagi ahamiyati yanada ortib borayotgani ta'kidlanmoqda. Yuqori harorat va nam tanqisligi hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatsada, mos agrotexnologiyalar, qurg'oqchilikka chidamli navlar va ildiz tizimini takomillashtirish orqali ushbu salbiy ta'sirlarni sezilarli darajada kamaytirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [5].

No'xat (*Cicer arietinum* L.) dukkakli ekinlar orasida oziq-ovqat va yem-xashak sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, uning doni oqsilga boyligi (20–30%), yuqori oziqaviy qiymati va agrotexnik jihatdan tuproq unumdorligini oshirish xususiyati bilan ajralib turadi. No'xat o'simligi ildiz tizimida azot to'plovchi bakteriyalar bilan simbioz holda yashab, atmosfera azotini o'zlashtirish orqali tuproqda biologik azot zaxirasini oshiradi. Shu jihatdan, u lalmikor dehqonchilik tizimida tuproq unumdorligini tiklash va saqlashda muhim agrobiologik omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, no'xat o'simligining o'suv va rivojlanish bosqichlari tashqi muhit omillariga, ayniqsa namlik va harorat sharoitiga juda sezgir hisoblanadi. Uning fenologik bosqichlarining o'z vaqtida va optimal davom etishi hosildorlikni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli, turli agrotexnologiyalar, jumladan ekish usullari, o'g'itlash tizimlari va zamonaviy agrotadbirlarning no'xatning rivojlanish dinamikasiga ta'sirini o'rganish muhim ilmiy masala hisoblanadi.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida resurs tejovchi va ekologik barqaror texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shular qatorida mulchalash texnologiyasi muhim o'rin tutadi. Mulchalash tuproq yuzasini organik moddalar (somon, o'simlik qoldiqlari) bilan qoplash orqali tuproq namligini saqlash, bug'lanishni kamaytirish, tuproq haroratini me'yorlashtirish va eroziya jarayonlarini cheklash imkonini beradi. Bu esa lalmikor sharoitda o'simliklarning barqaror o'sishi va rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqot ishida lalmikor sharoitda no'xat yetishtirishda an'anaviy va mulchalash texnologiyalarining turli o'g'itlash variantlari bilan uyg'unlashgan holda o'simlikning fenologik bosqichlari davomiyligiga ta'siri o'rganilishi mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Chunki fenologik jarayonlarning o'zgarishi orqali o'simlikning tashqi muhit omillariga moslashuv mexanizmini baholash mumkin.

Lalmikor sharoitda no'xat o'simligining o'suv va rivojlanish bosqichlariga turli ekish texnologiyalari hamda o'g'itlash me'yorlarining ta'sirini baholash maqsadida olib borilgan tadqiqotlarda o'simlikning asosiy fenologik fazalari unib chiqish, shoxlanish, gullash, dukkaklash va pishish bosqichlari bo'yicha kuzatuvlar amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, no'xat o'simligining unib chiqish bosqichi barcha variantlarda deyarli bir xil muddatda kuzatildi. Jumladan, barcha variantlarda urug'larning unib chiqishi 3 aprelda boshlanib, 10 aprelga kelib to'liq unib chiqdi. Shoxlanish bosqichi tahlili shuni ko'rsatdiki, an'anaviy texnologiya (A1) sharoitida bu bosqich asosan 25 apreldan 1 maygacha bo'lgan davrda kuzatilgan. Biroq o'g'itlash variantlari

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,**
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2

qo'llanilgan hollarda (B2, B3, B4 va B5) shoxlanishning boshlanishi 1 kunga ertaroq (24 aprel) kuzatilgan. Bu esa mineral o'g'itlar qo'llanilishi o'simlikning dastlabki o'sish jarayonlarini faollashtirishini ko'rsatadi.

Lalmikor maydonlarda turli ekish texnologiyalarining no'xat o'simligi rivojlanish fazalari (muddatlari)
davomiyligiga ta'siri.

№	Variantlar	O'simliklarning o'suv va rivojlanish bosqichlari aniqlangan muddat, kun, oy, yil sanasi									
		Unib chiqish		Shoxlanish		Gullash		Dukkaklash		Pishish	
		10 %	75 %	10 %	75 %	10 %	75 %	10 %	75 %	10 %	75 %
An'anaviy texnologiya											
1	O'g'itsiz nazorat varianti.	03.04.24	10.04.24	25.04.24	01.05.24	20.05.24	26.05.24	02.06.24	07.06.24	04.07.24	09.07.24
2	P ₄₀ K ₄₀ ekish oldidan + N ₃₀ (3-4 chin barg)	03.04.24	10.04.24	24.04.24	30.04.24	19.05.24	25.05.24	01.06.24	06.06.24	03.07.24	08.07.24
3	P ₃₀ K ₃₀ ekish oldidan + N ₃₀ (3-4 chin barg+shoxlanish)	03.04.24	10.04.24	24.04.24	30.04.24	19.05.24	25.05.24	01.06.24	06.06.24	03.07.24	08.07.24
4	N ₂₀ P ₃₀ K ₂₀ + N ₂₀ (3-4 chin barg-shoxlanish)	03.04.24	10.04.24	24.04.24	30.04.24	19.05.24	25.05.24	01.06.24	06.06.24	03.07.24	08.07.24
5	N ₂₀ P ₃₀ K ₂₀ + N ₂₀ (3-4 chin barg + RG (rokogumin biopreparat) - 2,5 l/ga + fungisit 0,15 l/ga + insektisit 0,15 l/ga -shoxlanish (suspenziya))	03.04.24	10.04.24	24.04.24	30.04.24	18.05.24	24.05.24	30.05.24	05.06.24	01.07.24	06.07.24
“Mulchalash” texnologiya asosida ekish (Somon bilan).											
1	O'g'itsiz nazorat varianti.	03.04.24	10.04.24	25.04.24	01.05.24	18.05.24	24.05.24	31.05.24	05.06.24	02.07.24	07.07.24
2	P ₄₀ K ₄₀ ekish oldidan + N ₃₀ (3-4 chin barg)	03.04.24	10.04.24	24.04.24	30.04.24	19.05.24	23.05.24	29.05.24	04.06.24	01.07.24	05.07.24
3	P ₃₀ K ₃₀ ekish oldidan + N ₃₀ (3-4 chin barg+shoxlanish)	03.04.24	10.04.24	24.04.24	30.04.24	19.05.24	23.05.24	29.05.24	04.06.24	01.07.24	05.07.24
4	N ₂₀ P ₃₀ K ₂₀ + N ₂₀ (3-4 chin barg-shoxlanish)	03.04.24	10.04.24	24.04.24	30.04.24	19.05.24	23.05.24	29.05.24	04.06.24	01.07.24	05.07.24
5	N ₂₀ P ₃₀ K ₂₀ + N ₂₀ (3-4 chin barg + RG (rokogumin biopreparat) - 2,5 l/ga + fungisit 0,15 l/ga + insektisit 0,15 l/ga -shoxlanish (suspenziya))	03.04.24	10.04.24	24.04.24	30.04.24	16.05.24	21.05.24	28.05.24	03.06.24	29.06.24	03.07.24

Mulchalash texnologiyasi (A2) sharoitida ham shoxlanish bosqichi deyarli shu muddatlarda kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi bosqichlarga o'tish tezligi yuqoriroq bo'lgani aniqlandi. Bu esa mulchalash orqali tuproq namligining saqlanishi va o'simlik uchun qulay mikroiklim sharoiti yaratilishi bilan izohlanadi.

Gullash bosqichi tahlili tadqiqotning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. An'anaviy texnologiyada gullash 20–26 may oralig'ida kuzatilgan bo'lsa, mulchalash texnologiyasida bu bosqich 16–24 may kunlariga to'g'ri kelgan. Ayniqsa, B5 variantida (o'g'itlar + biopreparatlar) gullashning ertaroq boshlanishi (16 may) kuzatildi. Bu holat biopreparatlar va kompleks o'g'itlash o'simlik fiziologik jarayonlarini tezlashtirishini ko'rsatadi.

Dukkaklash bosqichi ham yuqori darajada agrotexnologik ta'sirga uchragan. An'anaviy texnologiyada bu bosqich 1–7 iyun kunlari kuzatilgan bo'lsa, mulchalash texnologiyasida 28 may – 4 iyun oralig'ida amalga oshgan. Bu esa dukkak hosil bo'lish jarayonining 2–4 kunga ertaroq boshlanganini ko'rsatadi.

Eng ahamiyatli farqlar pishish bosqichida kuzatildi. An'anaviy texnologiyada no'xatning to'liq pishishi 4–9 iyul kunlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, mulchalash texnologiyasida bu jarayon 29 iyun – 5 iyul oralig'ida kuzatildi. Demak, mulchalash texnologiyasi vegetatsiya davrini o'rtacha 3–5 kunga qisqartirgan.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, mulchalash texnologiyasi o'simlik rivojlanish bosqichlarini tezlashtirib, uning ertaroq pishib yetilishiga olib keladi. Bu esa lalmikor sharoitda juda muhim ahamiyatga ega, chunki namlik tanqisligi sharoitida o'simlikning vegetatsiya davrini qisqartirish hosilni saqlab qolish imkoniyatini oshiradi.

O'g'itlash variantlari tahlili shuni ko'rsatdiki, mineral o'g'itlarni lokal va so'chma usullarda qo'llash (B3 va B4 variantlari) o'simlik rivojlanish bosqichlarini ma'lum darajada tezlashtirgan. Biroq eng yuqori samara B5 variantida kuzatildi, ya'ni mineral o'g'itlar biopreparat (rokogumin), fungitsid va insektitsidlar bilan birgalikda qo'llanilganda.

B5 variantida gullash, dukkaklash va pishish bosqichlari barcha variantlarga nisbatan ertaroq boshlangani kuzatildi. Bu esa kompleks agrotexnologik ta'sir natijasida o'simlikning fiziologik va bioximik jarayonlari faollashganini ko'rsatadi.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,**
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2

Shu bilan birga, nazorat variantida (o'g'itsiz) barcha bosqichlar nisbatan kechikkan holda kuzatildi. Bu esa tuproqda ozuqa elementlarining yetishmasligi o'simlik rivojlanishini sekinlashtirishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda lalmikor sharoitda no'xat o'simligining fenologik bosqichlari qo'llanilgan agrotexnologiyalarga bevosita bog'liq holda o'zgarishi va mulchalash texnologiyasi o'simlik rivojlanish bosqichlarini tezlashtirib, vegetatsiya davrini o'rtacha 3–5 kunga qisqartirishi aniqlandi. Mineral o'g'itlar va biopreparatlarni kompleks qo'llash eng yuqori samara berib, barcha fazalarda ertaroq rivojlanish kuzatildi. Shu bilan birga, o'g'itsiz nazorat variantida o'simlik rivojlanishi nisbatan sekin kechib, fenologik bosqichlar kechikdi. Umuman olganda, olingan natijalar lalmikor maydonlarda no'xat yetishtirishda mulchalash va kompleks o'g'itlashni birgalikda qo'llash maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kashiwagi J., Krishnamurthy L., Purushothaman R., Upadhyaya H.D., Gaur P.M., Gowda C.L.L., Ito O., Varshney R.K. Scope for improvement of yield under drought through the root traits in chickpea (*Cicer arietinum* L.) // *Field Crops Research*. – 2015. – Vol. 170. – P. 47–54. DOI: 10.1016/j.fcr.2014.10.003. 47–50-bet.
2. Gaur P.M., Krishnamurthy L., Kashiwagi J. Improving Drought-Avoidance Root Traits in Chickpea (*Cicer arietinum* L.): Current Status of Research at ICRISAT // *Plant Production Science*. – 2008. – Vol. 11(1). – P. 3–11. DOI: 10.1626/pp.s.11.3. 3–8-bet.
3. Purushothaman R., Krishnamurthy L., Upadhyaya H.D., Vadez V., Varshney R.K. Root traits confer grain yield advantages under terminal drought in chickpea (*Cicer arietinum* L.) // *Field Crops Research*. – 2017. – Vol. 201. – P. 146–161. DOI: 10.1016/j.fcr.2016.11.004. 146–156-bet.
4. Kumar J., Gupta D.S., Djalovic I., Kumar S., Siddique K.H.M. Root-omics for drought tolerance in cool-season grain legumes // *Physiologia Plantarum*. – 2021. – Vol. 172(2). – P. 629–644. 629–637-bet.
5. Devasirvatham V., Tan D.K.Y. Impact of High Temperature and Drought Stresses on Chickpea Production // *Agronomy*. – 2018. – Vol. 8(8). – Article 145. DOI: 10.3390/agronomy8080145. 2–8-bet.

Mualliflar:

Musurmanov Alisher Amirqulovich - Guliston davlat universiteti, q.x.f.f.d.,(PhD), dotsent,

E-mail: musurmanov1975@mail.ru;

Khayitaliyeva Madina Khudoyarovna - Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti;

Muratkasimov Alisher Sattarovich - q.x.f.f.d., k.i.x. Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti, E-mail:

alisher.muratkasimov@gmail.com

UDK 581.1:631.8

NON - TRADITIONAL FERTILIZERS OF PREPARATION TECHNOLOGY

NOAN'ANAVIY O'G'IT TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

ТЕХНОЛОГИЯ ПРИГОТОВЛЕНИЯ НЕТРАДИЦИОННЫХ УДОБРЕНИЙ

Atoev Baxtiyor Qo'ldoshevich

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti. 100000. Toshkent shaxri, Qamarniso ko'chasi, 3 uy.

E-mail: baxtiyor.atoev@mail.ru

Abstract. Increase of Organic matters in the irrigated lands is the guarantee of clean yield. Organic fertilizers have a special role in the increase of organic, macro and micro elements in the soil. Organic fertilizers improve soil properties. In article it is a question of use of a various waste and emissions as fertilizers in agriculture. For this purpose it is necessary to develop technology of preparation of nonconventional fertilizers from a waste. In this article the technology of preparation of fertilizers from the firm waste of the sewerage which have fallen down sheets in trees and silt of fresh waters is given. Soils are divers in terms of their type and composition. Due to the influence of various factors (treatment, fertilizers, irrigation etc.) soil

properties are subject to change. Soil fertility depends more on the nutrients that applied to soil during management. Demand for organic food production has been increasing while it will require to reintroduce of the practice of the application of organic fertilizers, including nontraditional ones. One of those organic amendments are composts made from wastes and crop residues. In this study, we studied the influence of the proportions and amounts of compost on the physic-chemical properties of the grey-brown meadow and irrigated meadow soils. It was revealed that compost affected those soils in two different ways, which led to improve their organic matter content followed by nutrients. In this study, we studied the influence of the proportions and amounts of compost on the physic-chemical properties. It was revealed that compost affected those, which led to improve their organic matter content followed by nutrients. The soils of the area under study in the article are moderately and weakly saline soils of irrigated brown-grass and irrigated meadow soils, the soils are light and medium sandy, both soils are poor in nutrients. Activity of soil microorganisms depends on organic matter. Change of the amount of soil microorganisms may occur with the addition of organic fertilizers and as well as soil properties.

Keywords: waste, firm waste, nonconventional fertilizers, technology, leaves and fresh waters is given, bacteria and fungus.

Аннотация. Увеличение органических веществ на орошаемых землях является залогом чистого урожая. Особую роль в увеличении органических, макро- и микроэлементов в почве играют органические удобрения. Органические удобрения улучшают свойства почвы. В статье речь идет об использовании различных отходов и выбросов в качестве удобрений в сельском хозяйстве. Для этого необходимо разработать технологию приготовления нетрадиционных удобрений из отходов. Пропорции и количество компоста, приготовленного на фоне различных удобрений, оказывали различное влияние на текстурные свойства почвы, что привело к улучшению текстурных свойств более. Почвы отличаются друг от друга по типу, составу. Из-за влияния различных факторов (агротехники, удобрений, воды, климата и других) на почву изменяются текстурные свойства почвы. Плодородие почвы будет в большей степени зависеть от питательных элементов, которые попадают в почву. Особое значение имеет использование органических удобрений, особенно сегодня. Пропорции и количество компоста, приготовленного на фоне различных удобрений на орошаемых пастбищных и орошаемых пастбищных почвах, оказывали различное влияние на текстурные свойства почвы, что привело к улучшению текстурных свойств более орошаемых пастбищных почв. Почвы исследуемой территории в статье - умеренно и слабозасоленные почвы орошаемых буро травных и орошаемых луговых почв, почвы легкие и сред непесчаные, обе почвы бедны питательными веществами. В данной статье дается технология приготовления удобрений из твердых отходов канализации, опавших листья в деревьев и ила пресных вод. Активность микроорганизмов в почве связано с количеством внесённого в неё органического удобрения. На изменение количества микроорганизмов в почве влияет количество удобрений, а также свойства почв.

Ключевые слова: отходов, выбросов, нетрадиционных удобрений, технология, в деревьев и ила пресных вод, микроорганизмы, бактерии и грибовые.

Kirish. Dehqonlar juda qadim zamonlardan buyon tuproq unumdorligini oshirish uchun turli-tuman vositalardan foydalanib kelganlar. Qadimdan turli halqlar chiqindi va qoldiqlardan samarali foydalanib, bilib-bilmay turli noan'anaviy o'g'itlar turini tayyorlab ekinlarga qo'llaganlar. Yillar, asrlar o'tib, zamon taraqqiy etib, zavodlarda mineral o'g'itlar ishlab chiqarish boshlandi. Hozirda dehqonlar ekin etishtirishda mineral o'g'itlardan keng foydalanmoqdalar. «O'zkimyosanoat AJ» korxonalari (2018 yil ma'lumoti bo'yicha) 100 % oziqa elementi hisobida 908,46 ming tonna azot, 135,15 ming tonna fosfor va 188,4 ming tonna kaliy o'g'itlarni ishlab chiqargan. Ma'lumotlar ko'rsatishicha azotli o'g'itlar hajmi talabga to'liq javob beradi, fosfor o'g'iti esa talabning atigi 20 % ni ya'ni 5 barobar azotga nisbatan kam, kaliy o'g'iti ishlab chiqarilgan hajmining 5 % yoki 20 barobar azotga nisbatan kam miqdorni tashkil qiladi. Mineral o'g'itlarni qo'llash qulay bo'lishi mumkin, lekin ularni tuproqqa ortiqcha qo'llanilishi tuproq strukturasiga, unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatda, tuproq unumdorligini ko'tarish esa oson bo'lmaydi. Bugungi kunda respublikamiz sug'oriladigan tuproqlar asosiy (fosfor va kaliy) oziqa elementlarga kambag'alashib qolgan. Statistik ma'lumotlarga qaraganda qishloq xo'jaligini azotli o'g'itlarga bo'lgan talabi 70-80 %, fosforli o'g'itlar bo'lgan talabi 30-40 % ga, kaliyli o'g'itlarga bo'lgan talabi esa undan ham kamroq qondirilmoqda. Shuning uchun tuproqqa berish mumkin bo'ladigan organik massa va oziq elementlarning qo'shimcha manbalarini topishni

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI,**
Tabiiy, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari seriyasi. 2026. № 2

talab etadi. Mana shunday manbalarga sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning chiqindilari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining qoldiqlari, maishiy xizmat, oziq-ovqat shahobchalari, xonadon chiqindilari, chuchuk suv loyqasi, kuzda to'kilgan daraxt barglari, bakterial preparatlar va h.k.kiradi. Bularning tarkibida ko'p miqdorda, ya'ni 50 % gacha organik moddalar, makro- va mikro- elementlar va o'simlik o'sishi uchun zarur bo'lgan boshqa moddalar bo'ladi, bu moddalarning tuproqda tanqisligi esa dehqonchilikda asosiy muammo hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda noan'anaviy o'g'itlar ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish, uni qo'lashning amaliy, ilmiy echimlarini topish taqozo etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda ham (Angliya, Germaniya, Rossiya, Koreya, Xitoy va boshqalar) chiqindi va qoldiqlardan o'g'it sifatida foydalanadilar. Bu esa mamlakatning o'g'itga talabini 20-30 % ini tashkil qiladi. Bizning respublikamizda chiqindi va qoldiqlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan va ko'plab ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilgan. Bu borada Tuproqunoslik va agrokimyo ITI, O'zRFA Umumiy va noorganik kimyo instituti, Paxta selektsiyasi, urug'chiligi va etishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti (O'zPITI), O'zbekiston Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining "Vodgeo" instituti, Samarqand veterinariya va meditsina instituti (Samarqand qishloq xo'jaligi instituti) va boshqa ko'plab tashkilotlar qishloq xo'jaligida turli chiqindi, qoldiqlardan noan'anaviy o'g'itlar tayyorlash borasida bir qator olimlar jumladan, akademik Sh.S.Namazov, I.T.Shamshidinov, G.E.Melikulova, R.Q.Qo'ziyev, J.S.Sattorov, M.M.Toshko'ziyev, A.A.Karimberdiyeva, A.Ergashov, J.Ikromov, U.Qosimov, N.Urazmatov, G.O'rinboyevlar, B.Niyazaliyev, L.Mirzayev, Sh.M.Bobomurodov, Sh.Ch.Mamiyev, B.Izbosarov, F.Xamroyev, X.Toshev, S.A.Azimboyev, B.S.Zokirov, B.S.Musayev, N.M.Ibragimov va boshqalar tomonidan olib borilgan va hozirda ham ilmiy izlanishlar davom etmoqda.

